

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

____Tarix FAKULTETI

152 -guruhi talabasi Ismailova Nafisa G`ayrat qizining

5111600 “Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari va huquq ta'limi” yo`nalishi
bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Jamiyat taraqqiyotida milliy g`oya va qadriyatlarning ahamiyati

Ilmiy rahbar:

o`qit. Jumaniyazov B

Urganch 2019 yil

MUNDARIJA:

Kirish3- 7

I.Bob. G’oya va mafkura ularning inson va jamiyat hayotida tutgan o’rni va roli.

1.1. Jamiyat taraqqiyotining muayyan fikrlar, g’oyalar, mafkuralar bilan bog’liqligi.....8-20

1.2. G’oya va mafkuralarning inson va jamiyat hayotiga ta’siri.....20-28

II-BOB. MA’NAVIYAT RIVOJLANISHINING ASOSIY OMILLARI.

2.1 Ma’naviyat - jamiyat rivojlanishining asosiy mezonidir.....29-39

2.2 Milliy g’oya va ma’naviyat va ularning mushtarakligi.....40-47

2.3 Ma’naviyatni tarkib toptirishda adabiyot va san’at asarlarini o’rni va roli.....47-56

XULOSA.....57-59

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR.....60-62

K I R I S H

Mavzuning dolzarbligi: Kishilik jamiyati paydo bo'libdiki, inson kundalik faoliyatida rivojlanib, takomillashib boradigan muayyan e'tiqodni ifodalovchi g'oyalarga tayanib ish ko'radi. Odatda bu e'tiqod muayyan ijtimoiy ta'limotlar vositasida ifodalanadi. Shu ma'noda, ijtimoiy ta'limot bilan o'zaro bog'liq bo'lmagan biror kishilik jamiyatini topishning imkoni yo'q. Zero kishilar asrlar davomida qaror topgan ma'naviy tajriba, dunyoqarash negizida shakllangan ma'lum mafkuraga tayanib, hayot kechirib kelishmoqda.

Birinchi Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Milliy g'oya va istiqloq mafkurasi haqida gap borar ekan, biz nihoyatda keng qamrovli, murakkab, serqirra, insoniyat tarixida aniq va mukammal ifodasi, tugal namunasi hali hanuz yaratilmagan tushunchalarni o'zimizcha tasavvur qilishimiz kerak, deb o'ylayman. Bu tushunchalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi yuksak g'oyalarning ma'no-mazmunini teran anglab etishga xizmat qiladi. Bu mafkura xalqni - xalq, millatni - millat etadigan, uning sha'nu sharafi, or-nomusi, ishonch-e'tiqodini ifodalaydigan, jamiyatimizning o'ziga xos taraqqiyot yo'li, turmush tarzi, tub manfaatlariga tayangan holda muttasil rivojlanib, takomillashib boradigan g'oyalar tizimidir»¹.

Milliy g'oya millatning yagonaligi, yaxlitligi va birligini ta'minlaydi, barcha fuqarolarni yagona bayroq ostida jipslashtiradi, Vatanning kelajagi porloq bo'lishiga ishontiradi va ommani istiqbolga ishonch bilan qarab yashashga undaydi.

Har qanday yangi g'oya singari mafkura ham ommaning ongiga chuqur singsa, hayotda chuqur ildiz otsa, amaliyotda o'zini to'la oqlasagina real voqelikka, katta ijtimoiy kuchga aylanadi.

Milliy mafkuramizni hayotga tez va keng yoyish uchun, dastavval uning mohiyatini chuqur o'rganish, maqsadlari, asosiy yo'nalishlari, o'ziga xos

¹ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka- erishish ostanasida. -T.: «O'zbekiston», 2012, 221-222-betlar.

xususiyatlarini bilib, o'zlashtirib olish, xalq o'rtasida keng targ'ib-tashviq etish, turli vosita va shakllardan foydalanish talab etiladi.

Endi ijtimoiy soha olimlari, mutaxassislar, ilg'or fikrli ziyolilar bu boradagi izlanishlarni chuqurlashtirib, umumlashgan nazariy xulosalarni ishlab chiqishlari, qisqacha aytganda, mafkuramizning asosiy maqsadlarini xalqqa sodda, haqqoniy, tushunarli tarzda ifodalab berishlari lozim¹².

Bizning milliy xususiyatlarimiz umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lanib ketgan. Asrlar davomida xalqimiz umumbashariy, umuminsoniy qadriyatlar takomiliga ulkan hissa qo'shgan. Turli millat vakillariga hurmat, ular bilan bahamjihat yashash, diniy bag'rikenglik, dunyoviy bilimlarga intilish, o'zga xalqlarning ilg'or tajribalari va madaniyatini o'rganish kabi xususiyatlar ham xalqimizda azaldan mujassam². Shu bilan birga, milliy tabiatimizga xos bo'lgan mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharmu hayo, ibo-iffat kabi betakror fazilatlar va xalqimizni ko'p jihatdan ajratib turadigan bag'rikenglik, mehmondo'stlik, oqko'ngillik xususiyatlari haqida ham uzoq gapirish mumkin. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov «Jamiyat taraqqiyotining asosi, - degan edi, - uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch - ma'rifatdir»³. «Tarix - xalq ma'naviyatining asosidir».

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida «Ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlar»ga alohida e'tibor berilgan. Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an'alariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. Shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta'minlanadi⁴. Umumiy hamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida, mamlakat aholisi orasidagi ma'rifiy ishlar takomillashtirilib boriladi.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka- erishish ostanasida. -T.: «O'zbekiston», 2012, 27-28-betlar

² Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8- tom. T.: «O'zbekiston», 2000, 24, 503 – bet.

³ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. T.: «Ma'naviyat», 2008, 146–betlar.

⁴ Karimov.I.A.Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: «Sharq», 1997, 55- bet.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Millat bor ekan, milliy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urf-odatlariga tahdid soladigan, uni o'z ta'siriga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o'z manfaati yo'lida foydalanishga intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar.

Shu ma'noda, bunday xavf-xatarlarga qarshi asosiy qurol sifatida yurtimizda yashayotgan har bir inson, avvalo, unib-o'sib kelayotgan yangi avlodning har tomonlama barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun bo'lib voyaga etishi uchun keng jamoatchilik va aholimiz o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatimizni yuksak darajaga ko'tarishning ahamiyati beqiyosdir».

Milliy istiqlol g'oyasi ajdodlarimizning milliy-madaniy merosiga tayangan holda mamlakatimizda yashaydigan turli xalqlar manfaatlarining o'zaro mushtarakligini ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi, O'zbekiston fuqarolarini mamlakat oldida turgan tarixiy maqsadlar yo'lida jipslashtiradi.

G'oya va mafkura **birinchidan**. mustaqillikni qo'lga kiritish yo'lida xalqni, millatni safarbar etishga qodir, mustaqillik, erkinlik va demokratiya qaror topishi uchun umumxalq kuch-g'ayratini birlashtiruvchi, ezgu g'oyalar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Shu yo'lda xalqning, millatning orzu-istaklari ijtimoiy-ma'naviy hayot sohala-ridagi o'ziga xos xususiyatlarini ifoda etadigan maqsadlar majmui sifatida o'z mazmuniga ega; **ikkinchidan**, mustaqillikni mustahkamlash bilan bog'lik; Buning uchun xizmat qiladigan g'oya va maqsadlar majmui sifatida fuqarolarning ishonchi va e'tiqodini oshirib jamiyatni turli xavf-xatarlardan himoya qilish, yagona xalq bo'lib birlasha olish, ijtimoiy organizm sifatida o'z-o'zini saqlab qolish, asrash-avaylash o'ziga xos va mos demokratik jamiyatni qurishga yordam beradi; **uchinchidan**. mustaqillikni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan kontseptual g'oya sifatida ham namoyon bo'ladi. Bu bejiz emas, albatta. Zero, o'z sha'ni, qadr-qimmatini, or-nomusini begonalarning tazyiqidan himoyalashni istagan

har qanday xalq kelajak avlod oldidagi muqaddas burchini, Ya'ni o'zidan keyin ozod va obod Vatan qoldirishni, farz sifatida bajarmog'i shart.

Bugungi O'zbekistonda ham milliy istiqloq g'oyasi ana Shunday ulug', ezgu maqsadlar bilan mushtarak g'oyalar majmui ekanligini his etish qiyin emas. Kimdir buni aniq idrok etayapti. Ammo oramizda uni his etmayotgan, o'zini xalqidan, millatidan tashqarida ko'rayotgan niyati noxolis, mustaqillik talablari bilan mos bo'lmagan ayrim «kishilar», «guruhlar» ham duch kelmoqdamiz.

Milliy istiqloq mafkurasi fikrni fikrdan, g'oyani g'oyadan, ma'rifatning jaholatdan farqini ko'rishga, ezgu fikr, g'oya va amallar bilan birga yovuz fikr, g'oyalar borli-gidan ham ogoh, etadi. Ularda yovuz va tajovuzkor g'oyaning har qanday ko'rinishiga nisbatan g'oyaviy immunitetni mustahkamlaydi. Ezgu, bunyodkor g'oyalar bilan yashashga, o'z faoliyatini erkin, farovon hayotga yo'naltirishga undaydi.

G'oya va mafkura O'zbekiston xalqining tarixiy maqsadlarini anglashga yordam beradigan, erkin va farovon hayotga erishish yo'llarini va shart-sharoitlarini ko'rsatib beradigan ana shunday ezgu maqsadlar yo'lida xalqimiz kuch-g'ayratini safarbar etadigan kuchli omildir. Shuning uchun ham uni o'rganish, bilish muhim ahamiyatga ega.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Bu mavzu bo'yicha ko'pgina olimlarimiz tadqiqot ishlari olib borganlar. Jumladan, Ibrohim A, Sulstonov X, Jo'raev N, A Erkaev, M. Imamnazarov, T. Maxmudov, O. Xasanbaeva, S. Otamurodov, S. Xusanov, M.Quranov, J. Romatova, I.Ergashev.A.Azizxo'jaev, A.Bekmuradov, N.To'xliev, Q.Haqberdiev, Q Ermamatov, Sh, Xolmatov N, Ubaydullaeva R., Ata-Mirzaev O. N. Umarov, A.Sh. Bekmurodovlar ^{1,2} tadqiqot ishlari olib borganlar.

¹ Azizxo'jaev A.A. CHin o'zbek ishi. -T.: «Akademiya», 2003. 101-133-betlar.

² Ergashev I. Nabiev E., Komilov N. va boshqa. Milliy istiqloq g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriyat bosqichi uchun darslik. -T.: Akademiya, 2005, 293-319-betlar.

³ Bekmurodov A.SH. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat: ustuvor masalalar va innovatsiyalar. - T.: TDIU, 2005. - 44 b

⁴ To'xliev N., Haqberdiev Q., Ermamatov SH., Xolmatov N. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 280 b., Ergashev I. Taraqqiyot falsafasi. T., «Akademiya», 2000. 38-bet.

⁵ Ubaydullaeva R., Ata-Mirzaev O., Umarova N. O'zbekiston demografik jarayonlari va aholi bandligi. – T.: Universitet, 2006. – 96 b.

⁶ O'zbekiston jamiyatini demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish yo'lida. -T.: Akademiya», 2005. -640-bet.,S.Otamurodov, S.Otamurodov. O'zbekistonda ma'naviy –ruhiy tiklanish.T.,”YAngi

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi va muhim manbasi.

Ishni tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari metodologik asos, mavzuga oid ilmiy maqolalar, risolalar va monografiyalar hamda ommoviy axborot vositalari va internet materiallari muhim manba bo'lib xizmat qildi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari.

Jamiyat taraqqiyotida milliy g'oya va ma'naviyatning o'rnini o'rganish va ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Ishni maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilanadi.

1. G'oya va ma'naviyat ularning jamiyat hayotida tutgan o'rni va rolini aniqlash va umumlashtirish.
2. Inson va jamiyat hayotida g'oyalar, fikrlar turli-tumanligi o'rganish va tahlil qilish.
3. Bunyodkor va buzg'unchi g'oya va mafkuralarning inson va jamiyat hayotidagi ijobiy va salbiy ta'sirini tahlil qilish.
4. Ma'naviyatni tarkib toptirishda adabiyot va san'at asarlarini o'rni va roli to'g'risida taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Ishning amaliy ahamiyati. Ishning amaliy ahamiyati shundaki, jamiyat hayotida g'oya va ma'naviyatning o'rni to'g'risida ko'plab ma'lumotlarni olish va turli tadbirlar jarayonida barkamol avlodning ma'naviyatini rivojlantirishda ular tasavvurini ma'naviy merosimiz, sharqona ma'naviyatimizga oid qarashlar bilan boyitishda muhim ahamiyatga egadir.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibi.

Bitiruv malakaviy ish "Kirish", ikkita bob, oltita paragrafni o'z ichiga olgan uch bob, "Xulosa" hamda "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati"dan iborat.

asr avlodi",2003y.,Ochilxonova F. Milliy g'oya va mafkura. T.: Fan.-2012.298b., Sulaymanov D. Ma'naviy omillarni jamiyat taraqqiyotidagi o'rni. T.: Sharq, 2009.234b.,Vaisov R. Millat va ma'naviyat. T.: 2011.-127B. Jafarov P. Milliy o'zlikni anglash va ma'naviyat. T.: 2012.78B.

I.BOB. G'OYA VA MAFKURA ULARNING INSON VA JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN O'RNI VA ROLI.

1.1. Jamiyat taraqqiyotining muayyan fikrlar, g'oyalar, mafkuralar bilan bog'liqligi.

G'oya tushunchasi (yunon. g'oya, ta'limot). Ilmiy adabiyotlarda «g'oya», «mafura», «ideya» va «ideologiya» tushunchalari ishlatilmoqda. «Ideya» va «ideologiya» ko'proq g'arb davlatlarida hamda rus tilidagi manbalarda uchraydi. Ideya iborasi yunon tilidagi «idea» so'zidan olingan. U ideologiya so'zining o'zagi bo'lib hisoblanadi va tushuncha yoxud fikr ma'nosini anglatadi. Ideologiya (Idea - g'oya, tuguncha, logos - ta'limot) atamasi esa g'oyalar to'g'risidagi ta'limotni anglatadi va ikki xil ma'noda ishlatiladi¹:

1) g'oyalarning mohiyat-mazmuni, shakllanishi, ahamiyati to'g'risidagi bilimlarni ifodalaydi va ilmiy soha bo'lib hisoblanadi;

2) muayyan g'oyani amalga oshirish, maqsadga etish usullari, vositalari, omillari tizimini anglatadi.

Demak: 1. G'oya inson tafakkurining mahsuli.

2. G'oya oldin mavjud bo'lmagan, o'zida yangilikni tashuvchi fikrdir.

3. Oldin g'oya paydo bo'ladi, undan keyin g'oya asosida mafkura, mafkura asosida esa tizim, siyosat paydo bo'ladi.²

G'oyalarning oddiy fikrlardan farqi yana shundaki, ular garchi tafakkurda paydo bo'lsa-da, inson va jamiyat ruhiyatiga, hatto tub qatlamlariga ham singib boradi. G'oya shunday quvvatga egaki, u odamning ichki dunyosigacha kirib borib, uni xarakterga keltiruvchi, maqsad sari etaklovchi ruhiy-ma'naviy kuchga

¹ Bekmurodov A.SH. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat: ustuvor masalalar va innovatsiyalar. - T.: TDIU, 2005. - 44 b.

² Sulaymanov D. Ma'naviy omillarni jamiyat taraqqiyotidagi o'rni. T.: Sharq, 2009.234b.

aylanadi. Ularni muayyan maqsadga yo'naltiradi, safarbar etadi, jipslashtiradi, hamkorlikka undaydi.

Muayyan g'oya odatda alohida olingan shaxs ongida shakllanadi, keyinchalik esa jamiyatning turli qatlamlariga tarqaladi, turli elat va millatlar orasida yoyiladi. Mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yangi avlod jamiyatda mavjud g'oyalar ta'sirida tarbiyalanadi, muayyan qarashlar va g'oyalarni o'z e'tiqodiga singdiradi, o'z navbatida yangi g'oyalarni yaratadi va targ'ib etadi.

Ezgu g'oya - inson tafakkurida vujudga keladigan, muayyan fikrlarning ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan, ruhiyatga kuchli ta'sir o'tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga keltiradigan, ularni bunyodkor maqsad-muddao sari etaklaydigan ulug'vor fikrlardir.

G'oya moddiylashtiruvchi, amaliyotga aylantiruvchi kuch ekanligiga qarab: sinfiy g'oya, milliy g'oya, umumxalq g'oyasi, umuminsoniy g'oyalar ham mavjud.

Mafkura - arabchadagi «mufakkir», «mufakkira tun» so'zlaridan olingan bo'lib, chuqur ma'noli, teran mazmunli fikr demakdir.

Mafkura - muayyan ijtimoiy guruh yo qatlamning, millat yoki davlatning, jamiyatning ehtiyojlarini, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-ma'naviy rivojlanish printsiplarini ifoda etadigan g'oyalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir¹.

Mafkurada manfaatlari ifodalangan ijtimoiy kuchlar va qatlamlarning o'tmishi, bugungi kuni va istiqboli aks etadi.

Birinchi Prezident Islom Karimov jamiyat mafkurasiga shunday ta'rif bergan: «Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o'rtasida o'ziga xos ko'prik bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman» (Asarlar, T.7. 89-bet).

¹ Ergashev I. va boshq. Milliy istiqloq g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. -T.: Akademiya, 2005. 35-bet.

«G'oya» va «mafkura» tushunchalari bir-biriga yaqin bo'lsada, ularni aynanlashtirmaslik kerak. Sababi:

Birinchi**dan**, mafkura g'oyaga nisbatan mazmunan kengroq tushunchadir.

Ikkinchi**dan**, har qanday mafkurada ijtimoiy voqelikni saqlab qolish yoki o'zgartirishga qaratilganlik, ya'ni maqsadlar botiniy emas, balki zohiriy tarkibda mavjud bo'lishini, mafkuraning o'zagini tashkil etadi.

Uchinchi**dan**, har qanday ijtimoiy g'oya faqat ma'lum bir mafkuraviy qarashlar doirasidagina o'zining uyushtiruvchilik, yo'naltiruvchilik salohiyatini, jozibadorlik kuchini namoyon qila olishi mumkin.

Mafkuraning nazariy manbalari:

1. Mafkuraning falsafiy ildizlari.
2. Mafkuraning dunyoviy ildizlari.
3. Mafkuraning diniy ildizlari haqida so'z yuritish mumkin.

Ijtimoiy taraqqiyot - g'oya va mafkuralar tarixi sifatida. Insoniyat tarixiga xalqlar va davlatlar, millatlar va jamiyatlarni yuksalishga etaklagan yoki ularni tanazzul va halokatga mahkum etgan turli xil g'oyalar ta'sir o'tkazib kelgan. Chunki insoniyat taraqqiyoti yoki tanazzuliga g'oya va mafkura bevosita ta'sir etadi. Mafkuraviy jarayonlar ijtimoiy sharoitlar bilan bevosita aloqadorlikda bo'ladi.

Milliy g'oya va mafkura o'zida gumanizm talablarini, xalqning iroda va intilishlarini aks ettirgan taqdirda jamiyatni birlashtirib, uning salohiyat va imkoniyatlarini to'la yuzaga chiqarishda beqiyos omil bo'ladi.

Masalan, XX asrda dunyo hamjamiyati tomonidan tan olingan yaponcha taraqqiyot modelini olaylik. Yapon milliy mafkurasi «milliy davlatchilik tizimi» (kokutay) «fuqarolik burchi», «yapon ruhi», «tadbirkorlik», «umummilliylik», «fidoyilik», «vatanparvarlik», «paternalizm», «jamoaga sadoqat», «modernizatsiya» kabi g'oya va tushunchalarga asoslanib, mamlakat erishgan yuksak natijalarda poydevor bo'ldi.¹

¹ Ergashev I. Taraqqiyot falsafasi. T., «Akademiya», 2000. 38-bet.

Tarixda davrlar almashinuvi bilan mafkuralar ham o'zgarib borgan. G'oyaviy zaiflik va mafkuraviy beqarorlik esa millatning birdamligi, davlatning qudratiga putur etkazadi, uning taraqqiyotini orqaga surib yuboradi. G'oyaviy zaiflik va mafkuraviy beqarorlikning tarixda achchiq saboqlari qolgan. Masalan, Makedoniyalik Aleksandr va arab bosqini, Chingizxon bosqini, chor istilosi davrlarida ayrim hukmdorlarning xalqni birlashtirib kurashga safarbar etmagani o'lkamizning qaramlik changaliga tushib qolishiga sabab bo'ldi.

Mafkura va g'oyalar tarixiy taraqqiyotda etakchi mavqelardan birini egallaydi. Insoniyatning ko'p ming yillik o'tmishi buni yaqqol tasdiqlaydi. Er yuzida dastlabki odamzod paydo bo'lib, uning urug', jamoa yoki xalq sifatida shakllanishi ro'y bergan dastlabki davrlardayoq ularni birlashtirib turadigan umumiy g'oya va mafkuraga ehtiyoj tug'ildi. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: „mafkura - jamiyatda yashaydigan odamlarning hayot mazmunini, ularning intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi»¹.

Jamiyat tarixini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ilk moddiy va ma'naviy madaniyat maskanlarining ko'pchiligi dastlab Sharqda shakllangan va bu insoniyatning keyingi taraqqiyoti uchun zamin bo'lib xizmat qilgan. Xususan, qadimgi Misr, Vavilon, Turon, Eron, Hindiston va Xitoyda vujudga kelgan tsivilizatsiyalar tarixda muhim o'rin tutadi. Qadimgi Sharq zamini xalqlari dunyoda birinchilardan bo'lib yerga ishlov berdilar, tabiatdan tanlab olish yo'li bilan madaniy o'simliklarning ko'plab navlarini etishtirdilar². Ular murakkab sug'orish inshootlari va moslamalarini yaratdilar, tarixga ma'lum bo'lgan birinchi suv tegirmonlari va objuozlarni qurdilar, dastlabki uy hayvonlarini qo'lga o'rgatdilar, ipak qurti boqib, undan tabiiy ipak olishni kashf etdilar. Nihoyatda murakkab me'morchilik san'atiga asos soldilar, tabiat kuchlari qarshisida qanchalik sabr-toqatli, irodali, o'tkir fikrli, jismonan baquvvat va ruhan yengilmas bo'lishni jahonga namoyon etdilar. Shu asnoda xilma-xil g'oyalarni yaratdilar, ularni amalga oshirdilar.

¹ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. T.8. -T.: «O'zbekiston», 2000. 490-bet.

²

Mafkuraviy jarayonlar tarixiy va ijtimoiy shart-sharoit bilan uzviy aloqador bo'lib, davrlar almashuvi bilan yangilik tomon o'zgaradi.

Ma'lumki, milliy g'oya va mafkuraning tarixiy shakllari va ko'rinishlari xalqimizning ko'p ming yillik o'tmishi davrida rivojlanib keldi. Qadimgi Xorazm, Sug'diyona va Baqtriyada ilk bor shakllangan, ajdodlarimiz tomonidan bundan 2700 yil oldin yaratilgan dastlabki yozma manba - «Avesto» kitobida ham ezgulik g'oyalari ilgari surilgan. (2001 yili YUNESKO hamkorligida 2700 yilligi keng nishonlandi). Yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi azaliy kurash aks ettirilgan. Zardo'shtiylikning ezgulik va insonparvarlik haqidagi qarashlari mintaqamizga islom dini kirib kelgunga qadar asosiy g'oyalar edi¹. Shuningdek, turkiy xalqlar o'rtasidagi Ko'k tangrisiga (osmon va quyoshga) sig'inish (shamanizm) va buddizm (buddaviylik) ham diniy e'tiqod sifatida zardushtiylik bilan yonma-yon yashab keldi.²

Zardushtiylik mintaqada ilk bor shakllangan dastlabki davlat birlashmalari: Xorazm, Sug'diyona va Baqtriyada davlat dini darajasiga ko'tarildi va rasmiy mafkura vazifasini ham bajardi. Kushon davriga kelib zardushtiylik bilan bir qatorda, buddaviylik ham davlat dini vazifasini o'tay boshladi.

Ammo, Turonning vaqti-vaqti bilan bosqinchilar hujumiga uchrab turishi jamiyatdagi barqarorlikni izdan chiqarar edi. Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Ahmoniy shohlari, 329-327 yillarda Aleksandr Makedonskiyning bosqinchilik yurishlari mintaqada mavjud bo'lgan mustaqil davlatchilikka ma'lum muddatga chek qo'yilishiga sabab bo'ldi. Xalqimiz o'z mustaqilligini qayta tiklash uchun dushmanga qarshi yillar davomida kurash olib bordi. Mustaqillik g'oyalari, o'z milliy davlatchiligini tiklash uchun kurash xalqimizning o'sha paytdagi orzu-umidlari, ta'bir joiz bo'lsa, uning g'oya va mafkurasini tashkil qildi. Ularga asoslangan xalqimiz Kushon podsholigi va Buyuk Turk Xoqonligi kabi ulkan saltanatlarga asos soldilar.

¹ Toxir Karim. Muqaddas «Avesto» izidan. -T.: «CHO'lpon», 2000. 176-bet.

² Sulaymanov D. Ma'naviy omillarni jamiyat taraqqiyotidagi o'rni. T.: Sharq, 2009.234b.

Biroq, tarixiy jarayon o'zgarishi bilan mintaqada mustaqil davlatchilikka yana vaqtincha chek qo'yishga to'g'ri keldi. VII asrning oxiri - VIII asrning boshlarida arab bosqinchilari Turonni bosib oldilar. Bunda istilo va istibdodga qarshi kurash g'oyalari yagona maqsad yo'lida, masalan, Turon zaminni arab istilochilaridan ozod qilish uchun janglarda birlashtiruvchi g'oya bo'ldi. Muqanna qo'zg'oloni va uning ozodlik uchun kurash g'oyalari istiqloqlolchilariga qarshi kurashda mafkura vazifasini bajardi.¹

Movarounnahrda islom dinining tarqalishi xalqning yagona maslakka birlashtirishdek tarixiy vazifani bajardi. IX-XII asrlarda somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar, xorazmshohlar sulolari tomonidan mintaqada asos solingan davlatlar nafaqat o'zbek xalqi, balki jahon xalqlari tarixida ham chuqur iz qoldirdi. Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi allomalarning o'lmas asarlari jahon fanini boyitdi. Mutasavvufilar: Xoja Yusuf Fomadoniy, Ahmad Yassaviy, Abdulxoliq Fijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro; muhaddislar: Imom Buxoriy, Imom Termiziylarning ta'limotida aks etgan **komil inson g'oyalari**, adolat haqidagi qarashlar jamiyatning sog'lom ma'naviy-axloqiy ruhini saqlash va mustahkamlashga xizmat qildi. Bu g'oyalar Vatan va xalq manfaati yo'lida fidoyilik va insonparvarlikni ulug'ladi. Ular milliy-ma'naviy qadriyatlar sifatida xalqimiz madaniyati, adabiyoti va san'atida, jumladan, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy, Mirzo Abdulqodir Bedillar ijodida chuqur o'rin egalladi.

Bu g'oyalar o'zbek davlatchiligining rivojlanishida ham muhim omil bo'lib xizmat qildi. Amir Temurning «Temur tuzuklari», Nizom-ul-mulkning «Siyosatnoma» kitoblarida davlat idorasi va ahli fuqaroga munosabatda adolat, insof, diyonat, el-yurt tinchligi va obodligi bosh g'oya sifatida ilgari surildi. Bu g'oyalar Temuriylar davlati g'oyaviy tamoyillarining ustuvor yo'nalishi edi.

¹ Ubaydullaeva R., Ata-Mirzaev O., Umarova N. O'zbekiston demografik jarayonlari va aholi bandligi. – T.: Universitet, 2006. – 96 b.

XVII-XIX asrlarda umummilliy manfaatlar o'rniga tor va cheklangan, shaxsiy va sulolaviy manfaatlarning ustun qo'yilishi, jamiyat hayotida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash va ilm-ma'rifatni rivojlantirishga yetarlicha e'tibor berilmagani o'zbek davlatchiligining tanazzulga yuz tutishiga, mustaqillikning qo'ldan berilishiga, Turkistonda mustamlakachilik tuzumi o'rnatilib, pirovardida milliy davlatchilikning yana bir bor tugatilishiga olib keldi. Shunga qaramasdan, chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lgan milliy g'oyalar tamomila yo'q bo'lib ketmadi. Aksincha, mustamlakachilik sharoitida ular milliy davlatchilikni tiklash, millat taraqqiyoti va istiqboli uchun kurash bayrog'i sifatida yana ilgari surildi.¹

Bu intilishlar XIX asrda ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan chiqqan Ahmad Donishning ilg'or qarashlarida, XX asr boshida yuzaga kelgan jadidchilik harakatining taraqqiyparvar namoyondalari - Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy ijodi va faoliyatida yana ham kuchaydi. Jadidlar Turkistondagi xalqlarni birlashtirish va butun o'lkaning milliy mustaqilligi uchun kurash g'oyasini ilgari surdilar. Turkistonda bosqinchi qizil armiya va sovet tuzumiga qarshi ko'tarilgan istiqloqlilik harakatining mafkurachilari ham aynan jadidlar bo'ldilar. Biroq, mustabid sovet tuzumi bu g'oyalarga qarshi g'ayriinsoniy mafkurani ilgari surib, xalq manfaatlarini inkor etdi². Bu utopik, hayoliy g'oyalar real hayot talablariga javob bermas, xalqning an'anaviy turmush tarziga, jamiyat taraqqiyoti qonunlariga mutlaqo zid edi. Ular milliy istiqloqni tan olmas, milliy qadriyatlarni toptar, diniy e'tiqodga qarshi kurash asosiga qurilgan edi. Lekin, mustabid hukumat ularni xalqqa tan oldirish uchun jon-jahd bilan kurashdi. Bu siyosat ayovsiz kurashlar, ta'qib, tazyiq va zo'ravonliklardan iborat edi. O'sha yillardagi mash'um qatag'onlar bu kurashning fojeali namoyon bo'lishi edi.

Bu tuzum o'lkamizda zo'rlik bilan o'rnatilgach, xalqimiz uning siyosati va mafkurasiga qarshi kurash olib bordi. Bu kurash shafqatsizlik bilan bostirilgach

¹ To'xliiev N., Haqberdiyev Q., Ermamatov Sh., Xolmatov N. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 280 b.

² www.filosofiya.ru.

esa, yashirin tarzda davom etdi. Va nihoyat, 1937- yildagi ommaviy qatag'on bu tuzum va uning mafkurasiga, g'oyalariga qarshi chiqqan, umummilliy manfaatlarni himoya qilgan har qanday «o'zgacha fikrlaydigan» kishini «xalq dushmani» deb e'lon qildi. Ular ba'zi milliy g'oyalarni ilgari surib, xalqimiz manfaatlarini himoya qilganliklari uchun ularni yo'q qilib yubordi.¹

Shundan keyingina, zo'ravonlik bilan o'rnatilgan bu g'oyalar jamiyatning yakka-yu yagona va hukmron mafkurasiga aylandi. Butun ommaviy axborot vositalari - radio, matbuot, televidenie, madaniyat, san'at, adabiyot, ijtimoiy fanlar Shu mafkurani targ'ib qilish va singdirishga xizmat qildi, davlat tashkilotlari uning hukmronligini kuch va zo'rlik bilan ta'minlab turdilar. Lekin bu g'oyalar baribir xalq qalbidan chuqur joy ololmadi, jamiyatning o'z mafkurasiga aylanmadi, xalqimizning milliy g'oya va asriy qadriyatlarini yo'q qila olmadi. Xalqimiz hayotida chuqur ildiz otgan, uning azaliy orzusi bo'lgan milliy g'oyalar XX asr 80-yillar oxirida davlatimiz rahbari Islom Karimov tomonidan izchil va jasorat bilan yana kun tartibiga qo'yildi va Vatanimiz ozodligi hamda mustaqillikni qo'lga kiritishda muhim omil bo'ldi. Ular mamlakatimizda mislsiz o'zgarishlarni amalga oshirish, xalqimiz hayoti va taraqqiyotini belgilab olishda umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligiga asoslangan ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish kabi oliy maqsadlarimiz ifodasi bo'lib kelmoqda.

Odamzodning paydo bo'lishi haqida juda ko'p g'oyalar ham mavjud:

1. Diniy qarashdagi g'oya... (Ruhiiy olam mavjudligi, uning oldin paydo bo'lganligi.).

2. Darwin ta'limoti... Bu ta'limot olimlar tomonidan haqiqatdan yiroqligi aytilmoqda.

3. Panspermiya (Yerga tiriklik urug'ining meteoritlar orqali kelgani) g'oyasi o'zining juda ko'p tarafdorlariga ega. Bu qarashni asoslashga urinib bir necha kitoblar yozgan olim Erix fon Deniken o'z taxminlarini qisqacha shunday bayon qiladi: Bizning yerimizga juda qudratli kelgindilar uchib kelishgan, ular bir juft

¹ To'xliiev N., Haqberdiev Q., Ermamatov Sh., Xolmatov N. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 280 b.

yovvoyi ikki oyoqlini ushlab, ular ustidan genetik tajriba o'tkazishib, keyin o'z hollariga qoldirishgan. Ulardan tug'ilgan bolalar odamzod nasliga asos solgan. Shundan keyin kelgindilar bir necha marta erga tushib, o'z tajribalariga muayyan o'zgartirishlar kiritishgan. Aftidan, bu jarayon hozir ham davom etayotir, deydi Erix fon Deniken.¹

4. Bundan tashqari, yana odamzodning yerda paydo bo'lishi bilan bog'liq ko'plab taxminlar mavjud. Ularning aksariyatida biz yerliklar ma'lum bir yulduzlardan kelib qolganligimiz «bashorat» qilinadi. Biroq eng obro'li odamlarning bu boradagi, aytish mumkinki, yakdil xulosalari shunday: Odamzodning yerda paydo bo'lishi bilan bog'liq muammolar hozircha ochiq qolayotir, aslida nima bo'lgan, e'tirozlarga o'rin qodirmaydigan aniq javob yo'q. Izlanishlar esa davom etmoqda. («O'zAS». 2001 yil 22 iyun).

5. Marksizm ta'limoti. Oldin materiya, keyin inson...

6. Idealistik ta'limot, oldin ruh, keyin materiya paydo bo'lgan kabi va h.k.²

Mafkuraning **1) falsafiy ildizlari** haqida fikr yuritganda, uning barcha ilmlarning otasi bo'lgan falsafa fani xulosalariga asoslanishi nazarda tutiladi. Bunga uyg'onish davri va o'rta asrlarda milliy davlatchiligini tiklay boshlagan Evropa xalqlarining har biri o'ziga xos mafkurasini yaratganini misol keltirish mumkin. Mazkur mafkuralar Rim imperiyasi parchalangandan keyin o'z davlatchiligiga ega bo'lgan xalqlarning o'ziga xos qadriyatlari va mentaliteti zaminida vujudga kelgan milliy falsafalar asosida shakllandi. Shu bois o'sha davrdagi italyan, ingliz, frantsuz falsafasi o'zi mansub bo'lgan jamiyatni birlashtirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, bu milliy maktablar zaminida vujudga kelgan falsafiy ta'limotlar, ma'rifiy qarashlar insoniyat madaniyati xazinasiga katta hissa bo'lib qo'shildi.

Jamiyat va sivilizatsiyalar rivojiga ulkan ta'sir ko'rsatgan nazariyalar, ta'limotlar va mafkuralar mavjud. Zardusht, Sukrot, Platon, Konfutsiy, Alisher

¹ Sulaymanov D. Ma'naviy omillarni jamiyat taraqqiyotidagi o'rni. T.: Sharq, 2009.234b.

² Ergashev I. Nabiev E., Komilov N. va boshqa. Milliy istiqlol g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. -T.: Akademiya, 2005, 293-319-betlar.

Navoiy, Maxatma Gandi va boshqalarning bunyodkor g'oyalari tarixda o'chmas iz qoldirgan. Sohibqiron Amir Temurning bunyodkorlik g'oyalari va faoliyati Sharq madaniyatining gurkirab rivojlanishiga buyuk hissa qo'shdi.¹

Kant, Gegel, Nitshe kabi mutafakkirlar nomi bilan shuhrat topgan nemis falsafasi xususida ham shunday fikrni aytish mumkin. Jumladan, haqiqiy milliy xususiyatlarga ega bo'lgan Gegel falsafasi Avstriya imperiyasidan ajralib, mustaqillik yo'lini tutgan Pruss monarxiyasining davlat mafkurasi darajasiga ko'tarilgan.

Mafkuraning **2) dunyoviy ildizlari** ma'rifiy dunyoga xos siyosiy, iqtisodiy, madaniy munosabatlar majmuidan iboratdir. Asrlar mobaynida insoniyat bosqichma-bosqich dunyoviylik sari intilib keldi. Umume'tirof etilgan tamoyillar va qonun ustuvorligi, siyosiy plyuralizm, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi xususiyatlar dunyoviy jamiyatning asosini tashkil etadi. Insonning haq-huquqlari va erkinliklari, jumladan, vijdon erkinligi ham qonun yo'li bilan kafolatlanadi. Bunday jamiyat mafkurasi «Dunyoviylik - dahriylik emas» degan tushuncha asosida rivojlanadi, ya'ni dinning jamiyat hayotida tutgan o'rni va ahamiyatini aslo inkor etmaydi.

Mafkuraning **3) diniy ildizlari** deganda u inson ongi va ruhiyoti bilan uzviy bog'liq ekani va shu bois uning g'oyaviy ildizlari diniy ta'limotlarga borib taqalishi tushuniladi. Ya'ni ko'pgina mafkuralarda «Zabur», «Tavrot», «Injil», «Qur'on» kabi ilohiy kitoblar zikr etilgan ezgu g'oyalar muayyan darajada o'z ifodasini topganini ko'ramiz.

Xitoy xalqining taraqqiyot yo'lini asoslab bergan Konfutsiy va Lao Tszining ta'limotlari ham diniy qarashlarga asoslangan edi. Bu ta'limotlar asrlar mobaynida mamlakatning milliy mafkurasi bo'lib kelgan.²

Dunyoviy va diniy g'oyalar bir-birini boyitib borgan sharoitda taraqqiyot yuksak bosqichga ko'tariladi. Bunga bashariyat tarixida o'chmas iz qoldirgan

¹ Ergashev I. Nabiev E., Komilov N. va boshqa. Milliy istiqlol g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. -T.: Akademiya, 2005, 293-319-betlar.

² Azizxo'jaev A.A. CHin o'zbek ishi. -T.: «Akademiya», 2003. 101-133-betlar.

Imom Buxoriy va Muso Xorazmiy, Imom Motrudiy va Abu Rayhon Beruniy, Imom Fazzoliy va Ibn Sino, Imom Termiziy va Abu Nasr Forobiy singari buyuk zakovat sohiblari yashab faoliyat ko'rsatgan davrlar yorqin misol bo'la oladi.

Inson hayotida ham, jamiyat taraqqiyotida ham g'oyalar muhim o'rin tutadi. Shu ma'noda, insoniyat tarixi - g'oyalar tarixidir.

Xo'sh, g'oya nima, nega unga bu qadar katta e'tibor va ahamiyat beriladi? Ma'lumki, har qanday millat va xalq, har qanday ijtimoiy tuzum va davlat muayyan bir tamoyillar va qadriyatlar asosida hayot kechiradi hamda o'z manfaatlarini, maqsad-muddaolarni, orzu-intilishlarini ko'zlab harakat qiladi.

Binobarin, ular hayotdagi ma'lum bir mafkuraga tayanadi. Inson tafakkuri voqelikni idrok etish mobaynida turli fikrlar, qarashlar, g'oyalar va ta'limotlar yaratadi. Binobarin, g'oyalar ham inson tafakkurining mahsulidir. Lekin tafakkur yaratgan har qanday fikr yoki qarash, mulohaza yoki nuqtai nazar g'oya bo'la olmaydi. Faqat eng kuchli, ta'sirchan, zalvorli fikrlargina g'oya bo'la olishi mumkin.

Olamning vujudga kelish, mavjudlik qonuniyatlari, uning asosini nima tashkil etgani kabi masalalarni falsafiy talqin etish natijasida monizm, dualizm, plyuralizm, idealizm va materializm singari oqimlar vujudga kelgan.

Mazmuni va namoyon bo'lish shakliga qarab, g'oyalarni bir qancha turlarga ajratish mumkin.

1. Ilmiy g'oyalar.
2. Falsafiy g'oyalar.
3. Diniy g'oyalar.
4. Badiiy g'oyalar.
5. Ijtimoiy-siyosiy g'oyalar.
6. Milliy g'oyalar.
7. Umuminsoniy g'oyalar va hokazo.

O'z oldiga qo'ygan maqsadi, qanday jamiyat qurmoqchi ekani, bunga qanday yo'llar va vositalar bilan erishmoqchi bo'layotgani haqidagi g'oyalari tizimi har bir millat, xalq va jamiyatning milliy mafkurasi asosini tashkil etadi.¹

Tarixdan ma'lum bo'lgan real mustabid tuzumlarni qiyosiy tahlil etish ular amal qilgan mafkuralarning quyidagi umumiy xususiyatlarini hamda bu g'oyalarni amalga oshirish bilan bog'liq qator salbiy oqibatlarni aniqlash imkonini beradi.

Avvalo, mustabidchilik mafkuralari o'z davlatlarida ijtimoiy va shaxsiy hayotning barcha sohalarini to'liq qamrab olishga, yagona dunyoqarash tizimi hukmronligini o'rnatishga intiladilar. Bu mafkuralar buyuk va yorqin o'tmishni inkor etadilar. Ular jamiyatni inqilobiy yo'l bilan yoppasiga qayta tuzish zarur va uni amalga oshirish mumkin, deb hisoblaydilar, o'zlarigacha bo'lgan qadriyatlarining barchasini yohud ko'pchiligini bekor qilib, ularni faqat o'z tamoyillari bilan almashtirmoqchi bo'ladilar. Masalan, birinchi qarashda, uzoq o'tmishga qaytishga chaqiruvchi islom fundamentalizmi go'yoki bundan mustasnodek tuyuladi. Biroq, aslida bunda ham o'sha andoza saqlanib qoladi. Ya'ni *Islom fundamentalizmi* tarix g'ildiragini o'rta asr jaholati davriga qaytarish niqobi ostida, «ijtimoiy kazarma» tipidagi bir xillashtirilgan mustabid «kelajak»ning o'ziga xos andozasini taklif etadiki, unda inson fuqarolik huquqlaridan to'liq mahrum qilinadi, haqiqatda diniy terrorga duchor etiladi. Biz Yuqorida bunday g'oyaning qanday ayanchli oqibatga olib kelishini o'rta asr Evropasidagi inkvizitsiya misolida ko'rib o'tdik.²

Axborot monopoliyasi ham siyosiy va iqtisodiy hokimiyatni mutlaqlashtirish bilan chambarchas bog'liqdir: «mustabid tuzum»da barcha axborot vositalari, jamiyatda muomalada bo'lib turgan axborotning mazmuni ham apparatning qattiq nazoratiga olinadi. Zo'ravonlik ishlatmasdan turib butun monopoliyalar tizimini saqlash va mustahkamlash mumkin bo'lmaydi. Shuning uchun ham davlat terrorizmi, terrorni ichki siyosatni amalga oshirish vositasi sifatida qo'llash

¹ Azizxo'jaev A.A. CHin o'zbek ishi. -T.: «Akademiya», 2003. 101-133-betlar.

² Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at // Mualliflar: M.Abdullaeva va boshqalar. – T.: Sharq, 2006. – 528 b.

«mustabidchilik tuzumlari» uchun xosdir. Turkistonda ham inqilobdan keyingi dastlabki yillarda hukumatning siyosiy terror natijasida butun-butun ijtimoiy guruhlar va qatlamlar yo'q qilindi. Shu jumladan, mustabid tuzumning g'ayriinsoniy xatti-harakatlari tufayli qariyb 2,5 million kishi yoki aholining deyarli yarmi mahv etilgan edi. O'zbekistonda faqat 1937-1953 -yillar mobaynida (bundan urush yillari mustasno) ittifoq mustabid mashinasi qariyb 100 ming kishini qatag'on qildi, ulardan 13 ming kishi otib tashlandi¹.

Mustabid davlatlarning o'ziga xos boshqa xarakterli xususiyati jamiyatning harbiylashtirilishi, «harbiy lager» yoki «qamal qilingan qal'a»dan iborat g'oyaviy-psixologik vaziyatni vujudga keltirishdan iboratdir. Bunda mamlakat ichida harbiy fanatizm vaziyati avj oldirilibgina qolmasdan, Shu bilan birga, agressiv tashqi siyosat ham amalga oshiriladi. Bu siyosat harbiy-hududiy va mafkuraviy bosqinchilik qilishga, o'zining mustabidchilik tartiblarini keng miqyosda qaror toptirishga qaratiladi.²

Lekin tarixiy haqiqat shundan iboratki, mustabidchilik mafkuralarining turli andozlari va ularning loyihalari asosida yaratilgan demokratiyaga qarshi tuzumlarning pirovard natijada halokatga uchrashi muqarrardir. Buni sobiq sotsialistik mamlakatlar, sovet davlati, gitlerchilar Germaniyasi va fashistlar Italiyasi, Kampuchiyadagi Pol Pot rejimi kabi mutlaq haqiqatni da'vo qiluvchi mafkuralarning tarixan istiqbolsiz bo'lgani ham yaqqol namoyish etdi.

1.2. G'oya va mafkuralarning inson va jamiyat hayotiga ta'siri

G'oyaning inson hayotidagi o'rni va ahamiyati juda muhim falsafiy masaladir. Inson o'zi g'oyalarni yaratadi, ulardan kuch-quvvat oladi. O'zi yaratgan g'oyalar insonning ongi va shuurini, tafakkuri va e'tiqodini egallab, uning sohibiga aylanadi. Yuksak g'oyalar odamlarni oliyjanob maqsadlar sari etaklaydi. G'oyasi

¹ www.filosofiya.ru.

² Azizxo'jaev A.A. Davlatchilik va ma'naviyat. -T.: «Sharq», 1997. 19-41-betlar.

etuk, e'tiqodi butun, qadriyatlari yuksak insongina mardlik namunalarini ko'rsata oladi.

Har bir xalqning tarixi shu xalqdan yetishib chiqqan buyuk siymolar, mard qahramonlar va fidoiy insonlar tarixi asosida bitiladi. Xalqimizning Shiroq va To'maris, Spitamen va Muqanna, Temur Malik va Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Bobur Mirzo kabi mard farzandlari - buyuk g'oya sohiblaridir.¹

Ming yillar o'tsa ham, ulug' ajdodlarimizning matonati va qahramonligi xalqning xotirasidan o'chmaydi. Chunki ular yuksak g'oyalar - Vatan ozodligi, el-yurt baxt-saodati, ilmu urfon rivoji yo'lida jon fido qilganlar. Ahmad Yassaviy butun umrini haq ishqida o'tkazganida ham, Najmiddin Kubro mo'g'ul bosqinchilariga qarshi jang qilganda ham ulug'vor g'oyalar ularga sabr-bardosh va matonat ato etgan. Jordano Bruno jismu jonini egallagan buyuk g'oya tufayli gulxan alangasida ham o'z e'tiqodidan qaytmagan, Nasimiyni tovonidan so'ysalar ham, ishq ilohiy deb jon bergan. Jahon tarixidan, jumladan xalqimizning o'tmishidan ham, qaysi sohada bo'lmasin, mardlik va jasorat ko'rsatish uchun insonga albatta ulug'vor g'oya kerak ekaniga ko'plab misollar topiladi.

Mafkuraviy plyuralizm (lot. Pluralis - xilma-xillik, rang-baranglik) - ijtimoiy-siyosiy hayotda turli qatlam, guruhlar manfaatlarini ifoda etuvchi g'oyaviy rang-baranglikni, qarashlar va fikrlar xilma-xilligini ifodalaydi. Inson va jamiyat hayotida g'oyalar va mafkuralar xilma-xilligining namoyon bo'lishi ijtimoiy-ma'naviy ehtiyoj ifodasidir.²

Yunon faylasuflari Aristotel ikkita inson aynan bir xilda fikrlamaydi, ularning olam haqidagi tushunchalari, fikrlari xilma-xildir deganda haq edi. Darhaqiqat, dunyodagi xalqlar, millatlar, mamlakatlar va davlatlar ham bir-biridan farq qiladi. Ularning diniy e'tiqodi, milliy madaniyati, demakki mentaliteti, maqsadlari va taraqqiyot yo'llari ham rang-barangdir. Ana shu dunyodagi har bir

¹ Sulaymanov D. Ma'naviy omillarni jamiyat taraqqiyotidagi o'rni. T.: Sharq, 2009.234b.

² Karimov I. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. T.: O'zbekiston, 2010.- 25 B.

davlat, xalq va millat, jamiyatning maqsad va manfaatlarini o'ziga xos g'oyasi va mafkurasi mavjud.

Muayyan bir g'oya dastlab biron-bir shaxsning ongida paydo bo'ladi. Ayni paytda u yuksak ijtimoiy mazmunga ega bo'lgani, jamiyatning taraqqiyot yo'lidagi ezgu intilishlarini aks ettirgani bois umuminsoniy haqiqatga aylanadi. Jahon tajribasiga nazar tashlasak, butun dunyo taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatgan nazariy ta'limot va mafkuralarni yaratish uchun insoniyat tarixining turli davrlarida ulkan aql-zakovat, iste'dod va terak tafakkur sohiblari mislsiz zahmat chekkanini ko'ramiz. Suqrot va Platon, Konfutsiy va Zardusht, Alisher Navoiy va Maxatma Gandi kabi buyuk mutafakkirlar faoliyati buning yaqqol tasdig'idir.

Bunyodkorlik g'oyalari yurtni obod, xalq hayotini farovon qilishdek olijanob maqsadlar bilan ajralib turadi. Ular insoniyat tsivilizatsiyaga erishgan davrlardan buyon jamiyat hayotining eng ezgu g'oyalari sifatida yashab kelmoqda. Prezident Islom Karimovning «O'zbek tom ma'noda bunyodkordir», degan so'zlarida ham ana shu boqiy g'oyalarning ma'no-mazmuni o'z ifodasini topgan. Bunday bunyodkorlik xalqimizga ota-bobolaridan merosdir.

Sharqda, jamiyat rivoji va bunyodkorlik g'oyalari xususida Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy qarashlari o'ziga xos o'rin tutadi. Ular asarlarida olijanob jamiyat, adolatli tuzum haqidagi o'z fikr-mulohazalarini bayon qilib, o'z davri uchun izchil ta'limot yaratdi. U har tomonlama yetuk, barcha aholini baxt-saodatga, ilm-ma'rifatga olib boruvchi ideal jamoa haqidagi g'oyalarni olg'a surdi.¹

Milliy davlatchilik g'oyasi va uning xalqlar taraqqiyotiga ijobiy ta'sirini mustaqil O'zbekiston misolida ham yaqqol ko'rish mumkin. O'zbekistonning xalqaro hamkorlik, mintaqaviy tinchlik, millatlararo totuvlik borasida olib borayotgan siyosati barqarorlik hukm surishiga asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Muayyan tarixiy davrlarda ba'zi mafkuralar davlat ideologiyasi darajasiga ko'tarilgan. Zamonlar o'tishi bilan ularning ayrimlari o'z mavqeini yo'qotgan,

¹ Vaisov R. Millat va ma'naviyat. T.: 2011.-127B.

lekin millat ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida saqlanib qolgan. Xalq ulardan quvvat olgan, ma'naviy oziqlangan, ular orqali o'z qadriyatlarini saqlagan.

Insoniyat tarixida o'z talab-ehtiyojlarini boshqa xalqlar hisobiga qondirish istagi talonchilik va bosqinchilik, buyuk davlatchilik va tajovuzkor millatchilik, fashizm va ekstremizm kabi mafkuralarni yuzaga keltirgan. Bunday g'oyalar xalqlar boshiga ko'p kulfat va musibatlar solgan.

O'z tarixini asosan XIX asrdan boshlagan ana Shunday mafkuralardan biri - sinfiy antogonizm g'oyalarini mutlaqlashtirgan va hokimiyatni qurol kuchi bilan egallab olgan sobiq kommunistik tuzum mafkurasini edi. **Sinfiy kurash** g'oyasi asosiga qurilgan va millionlab kishilar taqdirida mash'um iz qoldirgan bu mafkura jamiyatni bir-biriga qarama-qarshi taraflarga ajratib yubordi. Sinfiy kurash chizig'i nafaqat ijtimoiy guruh va qatlamlar orqali, hatto oilalar va insonlar ruhiyati orqali ham o'tdi. Oqibatda grajdanlar urushiga nazariy poydevor qo'yildi. Inson tabiatiga, uning mohiyati va ruhiyatiga zid bo'lgan birodarkushlik holati vujudga keldi. O'g'il otaga, uka akaga, do'st o'z birodariga qo'l ko'tarishi yoqlab chiqildi, rag'batlantirildi. Bular mardlik va sinfiy onglilik namunasi deb talqin etildi. Natijada milliy qadriyatlar toptaldi, millionlab kishilar halok bo'ldi, butun boshli xalqlar o'z vatanidan badarg'a qilindi.¹

Zo'rlik asosiga qurilgan va ziddiyatli tizimga asos bo'lgan bu mafkura dunyoning oltidan bir qismini egallagan ulkan saltanat va sotsialistik lager hududida etmish yil hukm surdi. Oxir-oqibat o'zining g'ayriinsoniy va g'ayrimilliy mohiyati, mustabid tabiati tufayli tanazzulga yuz tutdi. O'zi tayangan davlatni ham o'zi bilan birga olib ketdi.

Biroq, g'oyaviy kurash tobora yangi-yangi qiyofaga kirmoqda. Prezidentimiz Islom Karimov haqqoniy ravishda ta'kidlaganidek: «Ko'p sinovlar, azob-uqubatlar, xatolar, fojealar, qatag'onlarni boshdan kechirgan, asrimiz poyoniga etayotgan insoniyat yangi asr bo'sag'asida turgan bugungi kunda turli xil eski va yangi mafkuralarning o'zaro kurashi har qachongidan ham ko'ra shiddatli

¹ Vaisov R. Millat va ma'naviyat. T.: 2011.-127B.

tus olmoqda. Rang-barang, ba'zan bir-biriga zid dunyoqarashlar, siyosiy, milliy, diniy oqimlar, mazhab va sektalar o'rtasidagi fikr talashuvlari goho bahs-munozara doirasidan chiqib, qonli to'qnashuvlar, ommaviy qirg'inlarga sabab bo'lmoqda, odamlar boshiga behisob qayg'u-kulfatlar solmoqda».

Ana shu sababdan ham mustaqil O'zbekistonda hozirgi davrda millat, jamiyat, davlatning birlashtiruvchi bayrog'i bo'lgan milliy g'oya va mafkurani shakllantirish va xalqimiz ongiga singdirish yuzasidan faollik bilan ish olib borilmoqda. Bu mafkura mustaqillik yillarida erishilgan g'alabalarni, eng katta yutug'imiz bo'lgan istiqlolimizni, Ona Vatanimizni, farzandlarimizning baxtli kelajagini fidoyilik bilan himoya qilish, doimo hushyor va sergak bo'lishga yordam beradi. Zero, O'zbekiston bizning umumiy uyimiz - uni asrash har birimizning muqaddas vazifamizdir. Shu ma'noda milliy istiqlol g'oyasi har birimizning qalbimizga singadigan, umumiy g'oyamiz, ongimiz, dunyoqarashimizning tarkibiy qismidir¹.

«**Markaziy Osiyo hamkorligi» tashkiloti** (2002). 1994- yil 10- yanvarda Toshkentda O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtasida yagona iqtisodiy makon barpo etish to'g'risida shartnoma imzolandi. 1994- yil 16- yanvarda Qirg'iziston ham bu shartnomaga qo'shildi. 1994- yil 30- aprelda O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasida yagona iqtisodiy makon barpo etish to'g'risida shartnomaga Tojikiston respublikasining qo'shilishi to'g'risida protokol, mintaqaviy integratsiyani yanada chuqurlashtirish to'g'risida 4 ta davlat rahbarlarining bayonoti qabul qilindi. 1997- yil 10- yanvarda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston Davlatlararo kengashida imzolangan Abadiy do'stlik to'g'risidagi shartnoma esa o'zro integratsiyani yanada jadallashtirdi. 1998- yil 26-28- martda Toshkentda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston o'rtasidagi imzolangan yagona iqtisodiy makon barpo etish to'g'risidagi shartnomaga Tojikiston ham qo'shildi². Evroosiyo iqtisodiy hamjamiyati 2000-yil oktabrida Belorus, Qozog'iston,

¹ Jafarov P. Milliy o'zlikni anglash va ma'naviyat. T.: 2012.78B.

² www.bilim.uz.

Qirg'iziston, Rossiya va Tojikiston rahbarlari imzolagan. 2002- yilda «Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati» negizida «**Markaziy Osiyo hamkorligi**» (MOH) tashkiloti tuzildi. Bu tashkilotning maqsad va vazifasi barcha a'zo davlatlarning manfaatlarini hisobga olgan holda suv-energetika zahiralaridan unumli foydalanish, transport tizimining umummintaqaviy tuzilmasini barpo etish, ishlab chiqarish kooperatsiyasi va savdo-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy munosabatlarni har tomonlama rivojlantirish, ekologik muammolarni birgalikda hal qilish va barkarorlikni mustahkamlash kabi muhim yo'nalishlar belgilab olingan edi. Lekin bu tashkilotni rivojlantirishda ayrim milliy manfaatlarning umummintaqaviy manfaatlardan ustun qo'yilishi birgalikda qarorlar qabul qilishda to'sqinlik bo'lib keldi. 2005- yil 6-7- oktabrda Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg shahrida «Markaziy Osiyo hamkorligi» tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisi bo'ldi. Bu uchraShuvda «Markaziy Osiyo hamkorligi» tashkiloti Markaziy Osiyo umumiy bozorini barpo etish kontseptsiyasi loyihasini ko'rib chikdi. «MOH» tashkilotining bu galgi sammiti Evroosiyoda integratsiyalaShuv jarayonidaga burilish nuktasi bo'ldi. O'zbekiston rahbarining tashabbusi bilan Evroosiyoda makonida iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish va taraqqiyotni qo'llab-quvvatlash maqsadida «Markaziy Osiyo hamkorligi» tashkiloti va Evroosiyoda iqtisodiy hamjamiyati (EOIH) negizida yangi EOIHni shakllantirish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Evroosiyoda iqtisodiy hamjamiyati (1995). 1995- yili Rossiya, Belarus («ikkilik») davlatlari tomonidan «Bojxona ittifoqi» tuzildi. 1996- yili, ya'ni bir yildan so'ng bu shartnomaga Qozog'iston, Qirg'iziston («to'rtlik») va 1999- yilda Tojikiston («beshlik» bo'lib) ham qo'shildi. Shartnoma qatnashchilari hududda «erkin zona», ya'ni erkin iqtisodiy makonni yaratish yo'lida bojxona, savdo-sotiq bilan bog'liq muammolarni hal etishga kirishdilar. 1999- yili Qozog'iston o'z hududida Rossiyadan olib kelinayotgan oziq-ovqat uchun 200 foiz poshlina o'rnatdi. Bir oydan so'ng shunday tartibni Qozog'iston ham joriy etdi. 2000- yili «Bojxona ittifoqi»ga a'zo davlatlar: Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston rahbarlarining uchrashuvida mazkur tashkilotni **Evroosiyoda iqtisodiy**

hamjamiyatiga aylantirish to'g'risida dastlabki kelishuvga erishildi. Dastlab Evroosiyoga a'zo davlatlarning manfaati, potentsiali bir xil bo'lmay quyidagicha edi. Rossiya 48, Qozog'iston, Belarus 20 foizdan, Tojikiston, Qirg'iziston 10 foizdan iborat ovozga ega bo'lgan. 2005- yil 6-7- oktabrda Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg shahrida «Markaziy Osiyo hamkorligi» tashkiloti va Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati (EOIH) negizida yangi EOIHni shakllantirish to'g'risida qaror qabul qilindi. Demak, Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatiga 2006- yil 25- yanvarda O'zbekiston Respublikasi ham qo'shildi.¹

2002- yil 28- fevralida Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati negizida tashkil etilgan «Markaziy Osiyo hamkorligi» tashkiloti o'zining qisqa tarixida talay ishlarni amalga oshirdi. Uning maqsad va vazifalari sifatida barcha a'zo davlatlarning manfaatlarini hisobga olgan holda suv-energetika zahiralardan unumli foydalanish, transport tizimining umumintaqaviy infratuzilmasini barpo etish, ishlab chiqarish kooperatsiyasi va savdo-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy munosabatlarni har tomonlama rivojlantirish, ekologik muammolarni birgalikda hal etish, xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash borasidagi hamkorlikni faollashtirish kabi muhim yo'nalishlar belgilab olingan edi. 2005- yil 6-7- oktabrda Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg shahrida «Markaziy Osiyo hamkorligi» tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi uchrashuvi - sammiti Yevroosiyoda integratsiyalashuv jarayonidagi burilish nuqtasi bo'ldi. O'zbekiston rahbarining tashabbusi bilan Evroosiyo makonida iqtisodiy integra-tsiyani rivojlantirish va taraqqiyotni qo'llab-quvvatlash maqsadida «Markaziy Osiyo hamkorligi» tashkiloti va Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati (EOIX) negizida yangi EOIHni shakllantirish to'g'risida qaror qabul qilindi. «Markaziy Osiyo hamkorligi» tashkilotiga Belarus, EOIHga O'zbekiston qo'shilmagan edi. Endilikda esa bu ikkala respublika ham a'zo bo'ldilar. («Turkiston», 2005 yil 8 oktabr).

¹ Sulaymanov D. Ma'naviy omillarni jamiyat taraqqiyotidagi o'rni. T.: Sharq, 2009.234b.

«Markaziy Osiyo hamkorligi» tashkilotiga Belarus, EOIHga O'zbekiston qo'shilmagan edi. Qo'shilish haqidagi bu g'oya O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan bir ovozdan qo'llab-quvvatlandi¹ («Turkiston», 2005- yil 8 -oktabr).

2005- yil 14-15- noyabrda O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov rasmiy tashrif bilan Rossiya Federatsiyasida bo'lib, Rossiya Prezidenti V.Putin bilan uchrashdi. Uchrashuvda savdo-iqtisodiy, «siyosiy, ijtimoiy-madaniy, harbiy va harbiy-texnikaviy aloqalarga doir masalalar muhokama qilindi.

Evroosiyo iqtisodiy hamjamiyati doirasidagi aloqalar bilan bog'liq masalalar ham muhokama etildi. Uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma imzolandi. Shuningdek, har ikkala davlatlar o'rtasida savdo-sanoat palatalari o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi bitim, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi bilan Rossiya Federatsiyasining Narkotiklar aylanishini nazorat qilish bo'yicha federal xizmat to'g'risida narkotik vositalarning, psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga karshi kurashda hamda prekursorlarni nazorat qilishda hamkorlik to'g'risidagi bitimlar imzolandi² («Ma'rifat», 2005 yil 16 noyabr).

«SHanxay hamkorligi tashkiloti» (SHHT). Dastlab «SHanxay beshligi» deb nom olgan bu tashkilot 1996- yilda tashkil topgan. Unga: Xitoy, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Rossiya kirgan. O'zbekiston 2001- yil 15- iyunda kirdi. Bu tashkilot O'rta Osiyo respublikalari uchun ochiq. 2001- yil 14-15- iyunda SHanxay sammiti bo'lib, unga O'zbekiston a'zo bo'lgach uning nomi SHHT deb nom oldi. O'tgan yillar davomida bu tashkilot ko'plab o'z sammitlarini a'zo bo'lgan davlatlarda bir nechta bor o'tkazdi. 2001- yil 15- iyunda SHHT tomonidan «Xalqaro terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi kurash haqida» Konventsiya qabul qilindi. SHHTni tuzish to'g'risida deklaratsiya imzolandi. Uning doimiy ishlovchi ikki organi – Kotibiyat va Mintaqaviy aksilterror

¹ Jafarov P. Milliy o'zlikni anglash va ma'naviyat. T.: 2012.78B.

² «Ma'rifat», 2005 yil 16 noyabr.

tuzilmasini tashkil etishga kelishib olindi. SHHTning Xartiyasi (Nizom) 2002- yil 7- iyunda Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida qabul qilindi. 2003- yil 29- mayda Moskva sammitida 2004 -yanvaridan Pekinda Kotibiyatni, Toshkentda Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi ijroiya ko'mitasini ishga tushirishga qaror qilindi. 2004 -yil 17- iyunda Toshkentda SHHTning sammiti bo'lib, SHHT faoliyatining ikki asosiy yo'nalishi: xavfsizlik va savdo-iqtisodiy hamkorlik muammolarini muhokama qildilar.

2000- yilning sentabr oyida ham BMT Bosh Assambleyasi «Ming yillik sammiti»da, 2003- yil 29- mayda SHHTning Moskva sammitida, 2004-yil 17- iyunda Toshkent sammitida, 2005- yil 5- iyulda Ostona SHHTning sammitlarida Prezidentimiz mintaqamiz xavfsizligani ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan xalqaro terrorizm va narkobiznessga qarshi faol kurashish, Markaziy Osiyo mintaqasidagi barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash va jahon xavfsizlik tizimini takomillashtirish muammolariga e'tibor qaratdi. Mintaqa xalqlari uchun o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan bu jarayonni to'g'ri anglab etgan Markaziy Osiyo mamlakatlarning rahbarlari faqat 2000 -yilning o'zida bir necha bor uchraShuvlar o'tkazdi. Xususan, 2000 -yil oktabr oyida Toshkentda bo'lib o'tgan uchraShuvda «Markaziy Osiyoda narkotiklarning noqonuniy savdosi, uyushgan jinoyatchilik va terrorchishikka qarshi kurash bo'yicha hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari» to'g'risidagi o'ta muhim hujjat imzolandi.

II-BOB. MA'NAVIYAT RIVOJLANISHINING ASOSIY OMILLARI

2.1 Ma'naviyat jamiyat rivojlanishining asosiy mezonidir

Inson ma'naviyatini yuksaltirmasdan turib, xalqimiz hayoti va turmushi yuksalishida, xamda mamlakatimiz taraqqiyotida muvaffaqiyatlarga erishish qiyin. Islohatlarning birinchi bosqichida milliy ma'naviyatni yuksaltirish yo'lida ko'zlangan maqsad to'la amalga oshirildi va ikkinchi bosqichda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarga zamin xozirlandi. Ma'naviy, g'oyaviy, mafkuraviy parokandalik davriga barxam berildi. Ijtimoiy xodisalar bilan birga milliy ma'naviyatimiz yuksala bordi. Yurtboshimiz Islom Karimov «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» asarida ta'kidlaganidek: «Xalqning ma'naviyati va madaniyati, uning xaqiqiy tarixi va o'ziga xosligi qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilanish va taraqqiy ettirish yo'lidan muvaffakiyatli olg'a siljishida xal qiluvchi, ta'bir joiz bo'lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir...»¹. Haqiqatan faqat ma'naviy erkin va ozod xalq teran va komil tafakkur tufayli xar sohada katta yutuklarga erishishi mumkin. Boshqacha aytganda, fakat ma'naviy sog'lom, kuchli jamiyatgina islohotlarga tayyor bo'lishi mumkin².

Ma'naviy tarbiya sohasida ko'zbo'yamachilikka yo'l qo'yish nihoyatda xatarli. Ma'naviyat jamiyat xayotining shunday bir nozik, ahamiyatli sohasiki, bu borada xo'jako'rsinga ish qilish iqtisodiy va siyosiy sohalarda kutilmagan turli inqirozlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa, bu sohada o'zi bo'larchilik va lo'ttibozlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Kishilarda, xususan yoshlarda yangi ma'naviyatning shakllanishi ancha murakkab va mashaqqatli jarayon hisoblanadi. Buni amalga oshirish

¹ I. Karimov . Milliy istiklol goyasi : asosiy tushuncha va tamoyillar. T; «Uzbekiston» 2000 y. 22- bet.

uchun keng ko'lamli madaniy, tarixiy, ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish kerak bo'ladi. Eski tuzum sharoitida tarkib topgan ma'naviy inqirozga barham berish, yangicha tafakkurga ega bo'lgan insonni shakllantirish murakkab, muayyan davrni talab qiluvchi, asta-sekin amalga oshadigan jarayon bo'lganligi sababli tarixning burilish davrlarida jamiyat xayotida ma'naviy bo'shlik xolatlari xam yuzaga kelishi tabiiydir. Bu bo'shliq jamiyat uchun iqtisodiy, siyosiy inkirozga nisbatan ancha xatarliroq kechadi. Shuning uchun jamiyat ma'naviy hayotida bo'shlik paydo bo'lishiga aslo yo'l ko'yib bo'lmaydi. Bunday bo'shliq yuzaga kelgan taqdirda farzandlarimizni boshkalar etaklashga harakat kiladi. Bunday xavfning oldini olish uchun bugun qat'iy harakat qilmasak, ertaga kech bo'lishi mumkin. Uning achchiq saboqlarini 1999- yil 1-fevral voqealari ko'rsatdi.¹ Shu sababli tarixiy burilish davrlarida ob'ektiv tarzda yuzaga keladigan bunday holatlarni chuqur anglab, ularga to'g'ri munosabatda bo'lish lozim. Mamlakatimiz rahbariyat buni to'g'ri anglab, bunday xolatlarning qalqib yuzaga chiqishining oldini fakat odamlarimiz, avvalambor yoshlarimizning imon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustakil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash orqaligina olish mumkinligini, mustakillik tafakkuri, ma'naviyatini shakllantirish, maqsad, vazifa, vositalari yo'llarini izlab topish, hayotga joriy etish orqali hal etish mumkinligini ta'kidlab kelmokda.² Zotan, yosh mustaqil mamlakatimizning kelajagi uchun ma'naviyati yuksak, barkamol insonlar zarur. Shuning uchun ham yurtdoshimiz «Yuksak ma'naviyat — kelajak poydevori» degan hikmatli shiorni yanada balandroq ko'tardiki, yuksak ma'naviyat mustaqillikni mustahkamlash, rivojlantirish va takomillashtirish uchun muhim va zaruriy tamoyillardan biri bo'lib qoldi.

Ma'naviyatli va e'tiqodli kishilar o'z maslagi, vatani uchun jonini fido kilishga ham tayyordirlar.

O'zbekiston bozor munosabatlariga to'la o'tayotgan davrda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning ahamiyati tobora o'sib borayotganligi ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashni eng dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'ymokda. Shu ma'noda

¹ Karimov . Milliy istiklol goyasi : asosiy tushuncha va tamoyillar. T; «Uzbekiston» 2000 y. 22- bet.

² Islom Karimov. Milliy istiklol mafkurasi — xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. 13-14-bstlar.

yurtboshimiz Islom Karimovning ko'qidagi fikrlari hozirgi davrda har qachongidan ham ko'ra muhim ahamiyat kasb etadi: «Bu sohadagi ishlarimizning pirovard maqsadi — imon-e'tiqodi butun, irodasi bakuvvat erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirishdir. Ya'ni, mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs — komil insonni tarbiyalashdan iborat».¹

Bozor munosabatlarida ham yuksak ma'naviyatli va axloq-odobli, iqtidorli, bilim saviyasi yuqori va chuqur, zukko, ishbilarmon, ishchan kishilar zarur. Qashshoq ma'naviyat, ma'naviy-axloqiy sust, bilim saviyasi yuzaki va past, ishning ko'zini bilmaydigan kishilar bozor munosabatlarida ko'zlangan maqsadga erisha olmaydilar. Bundan xulosa shuki, hech kechiktirmay, ikkilanmay ma'naviy-ma'rifiy tarbiya masalasi hamda o'ylash, uni to'g'ri yo'lga solish vazifasi kelib chikadi. Bunda biz ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning: «Tarbiya bizlar uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo xalokat, yo saodat — yo falokat masalasidir», degan o'gitiga qilishimiz zarur..

Oldimizda turgan ezgu maqsadlarimiz — mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham, Oz'bekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o'rin egallashi ham — bularning barcha-barchasi, avvalambor, yangi avlod unib-o'sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo'lib voyaga etishiga bog'liqdir.

Vatanimiz ertangi kunini, o'z zurriyodlarining baxt-u istiqbolini istaydigan har bir odam — u kim bo'lishi, qanday lavozim egasi ekanidan qat'i nazar, farzandlarimizning ma'naviy, g'oyaviy tarbiya masalasidan chetda turmasligi kerak. Bugun bu o'ta muhim masalaga beparvo qarashga, loqayd bo'lishga xech kimning xaqqi yo'q.

Endilikda, ma'naviy va ma'rifiy tarbiya mustaqil davlatimiz siyosati darajasiga ko'tarildi. Chunki Prezidentimiz ta'kidlaganidek, taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Yurtdoshlarimizning

¹ Karimov I.A- Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot — pirovard maqsadimiz. 25-bet.

texnikaviy bilimi, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik, mustakil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruxiy-ma'naviy salohiyat ma'rifatli insonning ikki qanoti bo'ladi. Butun ma'naviy va ma'rifiy tarbiya ishimizni shu qoidaga asoslanib ko'rmog'imiz, zamon, mustaqil taraqqiyotimiz, bozor munosabatlari davri talabidir. Shaxs ma'naviyatini rivojlantirishning omillari va vositalari ko'p. Shulardan biri farzadning ota-onaga va ota-onaning farzandga bo'lgan munosabati masalasidir.

O'zbek xalqining eng qadimiy davrlardan boshlab, hozirga qadar davom etib kelayotgan, o'z ahamiyatini hech kachon yo'qotmaydigan ajoyib qadriyatlaridan biri — ota-onani farzandlar tomonidan yuksak darajada e'zozlash, izzat-ikromini, hurmatni joyiga ko'iishdan iboratdir. Farzand uchun dunyoda ota-onadan ko'ra mehribon, aziz va mo'tabar zot yo'q. Ota-ona farzandlarning suyanchi, bitmas-tuganmas boyligidir.¹

Ota-ona o'z farzandidan hech narsani ayamaydi. Ularning tabiat ato etgan buyukliklari ham ana shunda. O'zbek xalki odob-axloqi bo'yicha, keksalarning, ota-onaning oldidan salom bermasdan o'tish gunoh hisoblanadi. Ota-onani qadrlash, ularning beo'lchov, beminnat xizmatiga bir umr sodiq bo'lish, duolarini olish — bolalarning farzandlik burchidir. Bu milliy qadriyatlarimizning eng muxim talablaridan biridir.²

Buyuk bobomiz hazrat Alisher Navoiy aytganlaridek, ota-onani xurmat qilish «...farzandlar uchun majburiyatdir. Bu ikkisiga xizmatni birdek bil,.xizmatning qancha ortiq bo'lsa ham kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun butun jismingni sadaqa qilsang arziydi! Ikki dunyoning obod bo'lishni istasang, shu ikki odamning roziligini ol! Tunu kuningga nur berib turgan — birisini oy deb bil, ikkinchisini quyosh. Ularning so'zlaridan tashqari bir narsa yozma, ular chizgan chiziqdan tashqariga bir qadam

¹ O'zbekiston jamiyatini demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish yo'lida. -T.: Akademiya», 2005. -640-bet.

² Sulaymanov D. Ma'naviy omillarni jamiyat taraqqiyotidagi o'rni. T.: Sharq, 2009.234b.

ham bosma. Hamma xizmatni sen odob bilan bajar, «adab» soʻzidagi «dol» kabi komatingni ham qil»¹.

Tan olishiniz kerakki, shoʻrolar davrida keksalarni, ota-onalarni hurmat qilish haqidagi milliy qadriyatlarimiz biroz hira torta boshladi. Baʼzi yoshlarimizda oʻzlaridan kattalarni, nuroniy kariyalarni hurmat qilish, ularning nasihatlariga quloq solish singari yuksak maʼnaviy fazilatlar yoʻqolib ketayotgani sezilmoqda. Ehtimol, boshqa millat kishilari bunga unchalik eʼtibor berishmas, lekin biz, oʻzbeklar buni his qilmay ilojimiz yoʻq.

Shoʻrolar davrida, avlod-ajdodlarimizning oʻgʻitlari, pand-nasihatlari, ajoyib anʼanalarimiz targʻib qilish oʻrniga nuqul qoralandi, yomon otli qilindi, bidʼat, xurofot, deb baxolandi. Milliy tarbiya borasidagi merosimiz oʻrganilmadi, targʻib etilmadi. Ularning oʻrniga taʼlim-tarbiya borasida Yevropa, Rossiya modelini koʻklarga koʻtarib maqtab, targʻib qilib, yoshlarimizni oʻz milliy qadriyatlarimizdan bebahra qilib qoʻydik. Ana shu tufayli diniy-axloqiy, oila, qoʻni-qoʻshni, mahalla-qoʻylar taʼsiri kabi taʼlim-tarbiyaning *u* yot sinovidan oʻtgan bebaho boyliklaridan judo boʻla boshladik. Mustaqilligimiz tufayli bularga chek qoʻyildi, bunday salbiy illatlarni tugatish borasida sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda.

Kattalarga izzat-ikrom, kichiklarga mehr-shafqat, ota-onalarga eʼzoz, farzandlarga mehr-sadoqat kabi insonni inson sifatida ulugʻlaydigan, axloqiy, maʼnaviy jihatdan goʻzal va barkamol qiladigan qadriyatlarimiz odamlar, ayniqsa, yoshlar qalbidan oʻrin ola boshlagani quvonchli bir holdir.

Mustaqil Oʻzbekiston Respublikasining asosiy qonuni — Konstitutsiyada farzandlarning jamiyat, oila, ota-onalari oldidagi insoniy burchlari va masʼuliyatlari nimalardan iboratligi milliy qadriyatlarimizdagi asosiy gʻoya va qoidalarga asoslanib belgilab berilgan. Uning 66-moddasida qayd qilinishicha,

¹ www.philosophy.nsc.ru.

voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.¹

Xullas, har bir farzandning o'z ota-onasini e'zozlashi farzandlik burchi va jamiyat oldidagi mas'uliyati sanaladi. Ota-onani e'zozlash, uning quyidagi sharqona talablariga hammamiz amal kilishimiz ham farz, ham qarz, farzandlik burchimizdir: Ota-onaga salom berish, ozoda qilib kiyintirib qo'yish, kasal bo'lganda shifokorga ko'rsatish, kerakli dori-darmonni keltirib berish, doimo hol-ahvol, sihat-salomatliklarini so'rab turish, ota-ona oldida «ux» tortmaslik, gerdaymaslik lozim bo'ladi. Ota-ona norizo bo'lgan ishni qilmaslik, aroq ichma, giyohvandlik qilma, yomonga qo'shilma, desa uni qilmaslik va qo'shilmaslik kerak bo'ladi. Ko'chada yurganda otadan oldin yurmaslik, otadan avval ovqatga, dasturxonga qo'l uzatmaslik, otadan avval o'tirmaslik, otadan ko'ra poygakda o'tirish, otaning oldida oyoqni uzatib yonboshlab olish bizning axloq-odobimizga kirmaydi. Ota-ona chaqirganda labbay deb javob qaytarish, nima ish qilayotgan bo'lsa, hech ikkilanmasdan darrov ularga javob berish farzandlik burchi hisoblanadi. Shunda ota-ona o'z farzandidan rozi bo'ladi. Ota-onaning roziligini olgan farzand baraka topadi, ishi o'ngidan keladi, oldiga qo'ygan maqsadiga erishadi. Ota rozi — xudo rozi, degan xikmatda gap ko'p. Ota-onasi norizo bo'lgan farzand kechgacha yugursa ham, ishining barakasi bo'lmaydi, biri ikkiga aylanmaydi. Turmushga chiqish, uylanishda ota-onaning roziligini, oq fotixasini olishda xikmat ko'p. Yuqoridagilarning hammasi biz uchun bir xovuch oltin, xazina. Kelgusi hayotimiz uchun poydevor qo'yish demakdir. Bu dunyo qaytar dunyo, nima eksang shuni o'rsan, siz ota-onangizga nima qilgan bo'lsangiz, u sizga farzandlaringizdan qaytadi. Bu ham tabiat qonuni bo'lsa ne ajab!

Endi ota-onani hurmat kilishning ulug'vorligi haqidagi ba'zi ibratli fikrlarni hadislardan keltirib o'tamiz. «Qaysi bir musulmon farzandi savob

¹ O'zbekiston jamiyatini demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish yo'lida. -T.: Akademiya», 2005. -640-bet.

umidi bilan ertalab ota-onasini ziyorat qilsa, Olloh taolo unga jannatdan ikkita eshik ochadi. Agar ulardan bittasini ziyorat qilsa, unga jannatning bir eshigani ochadi. Bola ota-onasidan qaysi birini xafa qilsa, uni rozi qilmaguncha, Ollox taolo undan rozi bo'lmaydi»; «Kim ota-onasini rozi qilsa, unga tubo (jannatdagi daraxt) nasib bo'lib, Ollox taolo uning umrini ham ziyoda qiladi»; «Uch toifa kishilarning duosi, hech shubhasiz, Olloh taolo qoshida maqbuldir: mazlum kishining duosi, musofirning duosi va ota-onaning duosi»; «Ota-onalarning keksaygan vaqtda har ikkisini yoki biri bo'lmaganda boshqasini rozi qilib, jannatiy bo'lib olmagan farzand hor bo'lsin, xor bo'lsin va yana xor bo'lsin»; «Ota-onaga itoat qilish — tangriga itoat qilishdir. Uni oldida gunox qilish tangri oldida gunox ish qilish bilan barobardir»¹ va boshqalar.

Yuqorida farzandning ota-ona oldidagi burchi haqida fikr yuritdik. Ota-onaning ham farzand oldidagi burchi nihoyatda katta va mas'uliyatlidir. Farzandlarning kelajakda qanday ma'naviyat egasi bo'lishi ko'p jihatdan ota-ona, u bergan tarbiyaga bog'lik. Har bir ota-ona farzandi oldida o'z otalik, onalik burchini to'lik his etishi, unga javobgarligini ma'nan anglab etishi kerak.²

Sobiq sho'rolar davrida uzoq vaqt milliy va ma'naviy tarbiya chetga surib qo'yildi. Oqibatda bolalar tarbiyasida ota-ona mas'uliyati pasayib ketganligi hech kimga sir emas. Vaholanki bola, o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida ota-ona beradigan tarbiya juda muxim ahamiyatga ega. Farzand tarbiyasi quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishini har bir ota-ona yaxshi bilishi foydadan holi bo'lmaydi: **Birinchisi** — nasl tarbiyasi, Ya'ni bola tarbiyasi — bola tug'ilmasdan uch-to'rt yil oldin boshlanishi kerak. Ya'ni bo'lg'usi ona va otaning sog'lig'i, farzand tarbiyalashga mas'ulligini hisobga olish lozih bo'ladi. Bu — bola, farzand ko'rishni istagan ota-onaning bo'lajak

¹ Al-Buxoriy. Hadis, Al-Jomi' as-Sahih. 2-kitob, T., 1997.

² O'zbekiston jamiyatini demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish yo'lida. -T.: Akademiya», 2005. -640-bet.

farzandlari taqdiriga mas'uliyat bilan qarab, o'zlarining salomatliklarini, yaxshilashlarini nazarda tutadi. **Ikkinchi bosqich** — homiladorlik davridagi parvarish. Bu masala o'ta muhim, o'ta ahamiyatli bo'lib, bizda bu eng qoloq soha bo'lib kelmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda homiladorlik davri tug'ilajak inson tadirining 60 foizini belgilashi ko'zda tutiladi. Bu davrdagi chora-tadbirlar aksariyat ota-onalar tomonidan amalga oshiriladi. **Uchinchi davr** — bola tug'ilgandan to 6-7 yoshgacha bo'lgan davr. Shu davrga kelib, bola ma'naviyatining asosiy kurtaklari shakllanib bo'ladi. So'ng ana shu ma'naviy kurtaklarni parvarishlash va yanada rivojlantirish davri boshlanadi.¹

Ma'naviy barkamollik, balki, beshikdagi allaning mazmunidan, bolani kiyintirish-u uni halol luqma bilan boqishdan boshlanishi mumkin. Xazrati Bahouddin Naqshband aytganlaridek, insondagi yaxshi fe'llar, amollar xalol luqmadandir. Demak, ota-ona farzandini halol luqma bilan boqsa, u farzand ma'nan pok va halol bo'lib voyaga etadi. Biz sho'rolar zamonida buni unutayozdik, ahamiyat bermadik, boz ustiga tarbiyani ham tuzum o'z manfaatlariga moslashtirib, uni o'z qo'liga oldi.

Xulosa shuki, bola tarbiyasini dono xalqimiz aytganidek, u xali tug'ilmasdan ota ona va butun oila a'zolari hamjihatligida boshlashimiz lozim bo'ladi.

Olamda barcha narsa juft-juft bo'lib yaratilgan. Juft bo'lib yashash tabiat qonuni, taqozosi. Lekin oila bo'lib yashash barcha maxluqotlar orasida faqat odam nasliga hosdir.

Oila jamiyatning birlamchi butini, zarrachasi. Jamiyat ana shu kichik zarralardan tashkil topadi. Er va xotin — ikki tirik vujudning, ikki olamning o'zaro ittifoqidan paydo bo'lgan uchinchi bir olam — bu oiladir. Agar oila tinch-totuv, ahil bo'lsa, olam tinch va obod. Aks holda, turmush do'zaxga aylanadi, oila zindonning o'zi bo'ladi, buning jabrini esa er va xotinning o'zigina emas, balki farzandlari, yaqinlari ham tortadi.

¹ Ochilxonova F. Milliy g'oya va mafkura. T.: Fan.-2012.298b.

Oila poklikka va soflikka, ikki tomonlama muxabbatga, sadoqat va vafodorlikka asoslanishi kerak. Bu farzandlar tarbiyasi uchun *muhim* omil hisoblanadi.

Shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, e'tiqodiga ko'nikmalar majmui asosan oilada shakllanadi. Shu ma'noda, oila — haqiqiy ma'naviyat o'chog'i, mafkuraviy tarbiya omili va muhitidir. Binobarin, milliy g'oyamiz, mafkuramizga xos ilk fazilatlar oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshiriladi.¹

Oila, uning asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan muqaddas an'analar orqali yoshlarda vatanga muhabbat, imon-e'tiqod, mas'uliyat, vatanparvarlik, insonparvarlik, ishqqa ishtiyok, mehnat sevarlik ko'nikmalari shakllanadi.

Ota-onalar bolalarda yoshlikdan xalq, yurt taqdiri uchun fidoiylik tuyg'usini shakllantirish, ezgulik, insonparvarlik, rahm-shafqatlilik ruhida tarbiyalashga mas'uldirlar. Buning uchun o'z farzandlarini yoshligidan boshlaboq narsalar olami bilan tanishtirishning milliy an'alarimizga xos shakllarini qo'llashlari lozim. Bu jarayonda turmush tarzimizga yot bo'lgan «jangari» o'yinchoqlar, multfilmlar, kinofilmlardan imkon qadar foydalanmaslik maqsadga muvofiq bo'ladi. Balki, sharqona odob va bashariyatning ezgu intilishlarini aks ettiruvchi o'yinlar, o'yinchoqlar, rasmi kitoblar, milliy ertaklar asosida yaratilgan multfilmlarni ko'rishga qiziqtirish ular ma'naviy-mafkuraviy tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Masalan, «Zumrad va Qimmat», «Yoriltosh», «Xo'ja Nasriddinning sarguzashtlari» kabi qator ertak-filmlar orqali bolalarda yaxshilikka muhabbat, yomonlik, yovuzlikka nisbatan nafrat tuyg'ularini tarbiyalash, ma'naviyat tantanasiga ishonch xissini o'yg'otish mumkin.

Eng qadimgi odatimizga ko'ra, o'zbek oilasi ham to'ydan boshlanadi. Xalqimiz sahovatli xalq. Topganini el-yurt oldiga qo'ysam, deydi. Xalqimizni to'ysevarlikda ayblab bo'lmaydi. Agar ayblasak, o'z-o'zimizni kamsitgan bo'lamiz. To'y va ma'rakalarimizga o'rinsiz tosh otish insofdan emas. Lekin to'y baxona soxta obro' olishga intilish, kimosharga isrofgarchilikka yo'l qo'yishni oqlab bo'lmaydi.

¹ Vaisov R. Millat va ma'naviyat. T.: 2011.-127B.

To'y va ma'rakalarda musobaqa emas, xayr-sahovat va ma'naviyat qadriyatlarini mustahkamlash ustuvor bo'lgani yaxshi.¹

O'zbek oilasining tashqaridan sezilmaydigan o'ziga xos ichki qonun-qoidalari, axloqiy, ma'naviy mezonlari bor. Quyida biz shulardan ba'zilari, turmush uchun zarurlari haqida to'xtab o'tishni lozim topdik, zero, bu siz kabi oila qurish oldida turgan yoshlar uchun foydadan xoli bo'lmas, degan niyatdamiz. Aytmoqchi bo'lgan gaplarimizni eshitgan bo'lsangiz, yana bir bor eshitsangiz foydadan xoli emas.

Rizq-ro'z tongda har bir odamga, oilaga ulashiladi. Kimki g'aflat bosib, o'rmda yotaversa, rizqidan quruk qoladi, deyiladi. Barvakt turilsa, ish unumli, o'sha kun xayrli bo'ladi....

Yuz-qo'lni yumasdan hol-ahvol so'ralmaydi, yuz-qo'lni yuvgandan so'ng kichiklar kattalarga salom beradilar, ayollar nonushta tayyorlaydilar, qizlar-kelinlar xovli, eshik oldini supurib, suv sepib qo'yadilar...

Ish yoki o'qishga oilaning tabarruk yoshlilaridan fотиha olib ketilishi axloq-odob doirasiga kiradi, qaytganda, avval ularga uchrashib, salom beriladi, xol-axvol so'raladi...

Oila odobiga ko'ra katta yoshlilar bolalarga, balog'atga etgan farzandlar, kelinlar katta yoshlilarga ochiq-sochiq holda ko'rinmaydilar, bachkana qiliq qilmaydilar, pardasiz so'zlarni aytmaydilar.² Ko'chaga uy kiyimida chiqilmaydi va boshqalar. Aytaversak, o'zbek oilasining fazilatlarini ko'p, qonunlarda belgilanmagan, ammo, millatimizning qadriyatlariga aylangan tartib va talablari mavjud. Ularni farzandlarimiz o'zlashtirishi ham farz va ham qarzdir. Chunonchi, oilada ota-ona, qaynona-kelin, qarindosh-urug'lar o'rtasidagi munosabatlarning me'yori, ularning maqsadga muvofiqligi, munosabatlarning samimiyat darajasi ham yoshlarda sog'lom fikrning, sharm-hayo, mehr-oqibat, iffat, ibo, nazokat, lafz, mas'uliyat kabi ijobiy ma'naviy fazilatlar shakllanishiga zamin hozirlaydi. Xalqimizga xos ustuvor

¹ Ochilxonova F. Milliy g'oya va mafkura. T.: Fan.-2012.298b.

² O'zbekiston jamiyatini demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish yo'lida. -T.: Akademiya», 2005. -640-bet.

fazilatlar asosan oilaviy muxitda, yaqin qarindosh-urug'larning bevosita aralashuvida yuz beradi. Bu hol mehnatga to'g'ri munosabat, halollik, kattalarni hurmat qilish, kichiklarni e'zozlash, ayash, urf-odatlarini muqaddas bilish jarayonida amalga oshadi. Bunday sifatlarni o'zlashtira olgan har bir o'g'il-qizda oilaparvarlik, yurtparvarlik fazilatlarini rivojlanishi muqarrar, ammo, oilaviy nizo va ajralishlarning sabablari tahlil qilinganda, shu narsa ayon bo'lmoqdaki, oila muxitining nosog'lomligi, oila a'zolari o'rtasidagi kelishmovchiliklar, o'zaro til topa olmaslik holatlari nafaqat o'sha oila, balki qarindosh-urug'lar o'rtasidagi xotirjamlikka ham raxna soladi. Eng achinarlisi — buning oqibatida e'tiqodsiz, diyonatsiz, maqsadsiz bolalar, xayotda o'z o'rnini topa olmagan insonlarning paydo bo'lishidir.¹

Shunday qilib, oila — jamiyatning asosiy bo'g'ini. Oilada singdirilgan tarbiya, Vatan, el-yurt, mustakillik, ozodlik haqida berilgan tushuncha, tasavvur bolaning murg'ak qalbida bir umr muxrlanib koladi. Oila mustaxkam, tinch, farovon, sog'lom bo'lsagina, jamiyatda barqarorlik vujudga keladi. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, «Oilaning jamiyatdagi o'rni, tarbiyaviy-ahloqiy axamiyati, qadr-qimmatini anglab etmasdan, oilaga millat manfaati nuqtai nazaridan yondashmasdan turib, xalqchil mafkura yarata olmaymiz»¹. Ya'ni ma'naviy sohadagi vazifalarimizni muvaffaqiyatli amalga oshira olmaymiz.

Shuning uchun ham mamlakatimizda oilani mustahkamlashga alohida e'tibor berilmoqda.² Jumladan, Asosiy qonunimizning «Oila» deb atalgan 14-bobida quyidagi qoidalarni o'qish mumkin: 63-modda. Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish xuquqiga ega...

64-modda. Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar...

65-modda. ...Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi va boshqalar.

¹ Krimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.:1996.-76-b.

² Jafarov P. Milliy o'zlikni anglash va ma'naviyat. T.: 2012.78B.

Mustaqil Respublikamizda Oila munosabatlariga alohida ahamiyat berilayotganligini Oliy Majlisning birinchi chaqirik o'n birinchi sessiyasida «Oila kodeksi» haqidagi qonunning qabul qilinishida ham ko'rishimiz mumkin. Davlatimizning oilaning rolini oshirishga qaratilgan siyosati, albatta, farzandlarimshning ma'naviyatini yuksaltirishida katta ahamiyatga ega bo'ladi.

2.2 Milliy g'oya va ma'naviyat va ularning mushtarakligi

Milliy g'oya - millatning o'tmishi, bugungi va istiqbolini o'zida mujassamlashtirgan, uning tub manfaatlarini va maqsadlarini ifodalab, taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy g'oya shaklidir.

Mamlakatimiz uchun milliy g'oya haqidagi masalaning bugungi amaliy ahamiyati shundaki, biz o'tish davrini boshdan kechirmoqdamiz. Aynan shunday paytda aholining turli qatlamlari manfaatlarini himoya qiluvchi mafkuralarning shakllanishiga sharoit tug'ilishi mumkin. Shunday ekan, millat, jamiyatning parokanda bo'lib ketishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Har bir avlod, har bir xalq, har bir davlatning o'z rivojlanish xususiyatini aks ettiradigan g'oyalari bo'lgan.

Insoniyat tarixiga xalqlar va davlatlar, millatlar va jamiyatlarni yuksalishga yetaklagan yoki ularni tanazzul va halokatga mahkum etgan turli xil g'oyalar ta'sir o'tkazib kelgan. Chunki insoniyat taraqqiyoti yoki tanazzuliga g'oya va mafkura bevosita ta'sir etadi. Mafkuraviy jarayonlar ijtimoiy sharoitlar bilan bevosita aloqadorlikda bo'ladi.

Milliy g'oya va mafkura o'zida gumanizm talablarini, xalqning iroda va intilishlarini aks ettirgan taqdirda jamiyatni birlashtirib, uning salohiyat va imkoniyatlarini to'la yuzaga chiqarishda beqiyos omil bo'ladi.

Masalan, XX asrda dunyo hamjamiyati tomonidan tan olingan yaponcha taraqqiyot modelini olaylik. Yapon milliy mafkurasida «milliy davlatchilik tizimi» (kokutay) «fuqarolik burchi», «yapon ruhi», «tadbirkorlik», «umummilliylik», «fidoyilik», «vatanparvarlik», «paternalizm», «jamoaga sadoqat»,

«modernizatsiya» kabi g'oya va tushunchalarga asoslanib, mamlakat erishgan yuksak natijalarda poydevor bo'ldi.¹

Tarixda davrlar almashinuvi bilan mafkuralar ham o'zgarib borgan. G'oyaviy zaiflik va mafkuraviy beqarorlik esa millatning birdamligi, davlatning qudratiga putur yetkazadi, uning taraqqiyotini orqaga surib yuboradi. G'oyaviy zaiflik va mafkuraviy beqarorlikning tarixda achchiq saboqlari qolgan. Masalan, Makedoniyalik Aleksandr va arab bosqini, Chingizxon bosqini, Chor istilosi davrlarida ayrim hukmdorlarning xalqni birlashtirib kurashga safarbar etmagani o'lkamizning qaramlik changaliga tushib qolishiga sabab bo'ldi.

Mafkura va g'oyalar tarixiy taraqqiyotda yetakchi mavqelardan birini egallaydi. Insoniyatning ko'p ming yillik o'tmishi buni yaqqol tasdiqlaydi. Yer yuzida dastlabki odamzod paydo bo'lib, uning urug', jamoa yoki xalq sifatida shakllanishi ro'y bergan dastlabki davrlardayoq ularni birlashtirib turadigan umumiy g'oya va mafkuraga ehtiyoj tug'ildi. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: «Chunki, mafkura - jamiyatda yashaydigan odamlarning hayot mazmunini, ularning intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi»².

Jamiyat tarixini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ilk moddiy va ma'naviy madaniyat maskanlarining ko'pchiligi dastlab Sharqda shakllangan va bu insoniyatning keyingi taraqqiyoti uchun zamin bo'lib xizmat qilgan. Xususan, qadimgi Misr, Vavilon, Turon, Eron, Hindiston va Xitoyda vujudga kelgan tsivilizatsiyalar tarixda muhim o'rin tutadi. Qadimgi Sharq zamini xalqlari dunyoda birinchilardan bo'lib erga ishlov berdilar, tabiatdan tanlab olish yo'li bilan madaniy o'simliklarning ko'plab navlarini etishtirdilar. Ular murakkab sug'orish inshootlari va moslamalarini yaratdilar, tarixga ma'lum bo'lgan birinchi suv tegirmonlari va objuvozlarni qurdilar, dastlabki uy hayvonlarini qo'lga o'rgatdilar, ipak qurti boqib, undan tabiiy ipak olishni kashf etdilar. Nihoyatda murakkab me'morchilik san'atiga asos soldilar, tabiat kuchlari qarshisida

¹ Ochilxonova F. Milliy g'oya va mafkura. T.: Fan.-2012.298b.

² Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. T.8. -T.: «O'zbekiston», 2000. 490-bet.

qanchalik sabr-toqatli, irodali, o'tkir fikrli, jismonan baquvvat va ruhan engilmas bo'lishni jahonga namoyon etdilar. Shu asnoda xilma-xil g'oyalarni yaratdilar, ularni amalga oshirdilar.¹

Mafkuraviy jarayonlar tarixiy va ijtimoiy shart-sharoit bilan uzviy aloqador bo'lib, davrlar almashuvi bilan yangilik tomon o'zgaradi.

Ma'lumki, milliy g'oya va mafkuraning tarixiy shakllari va ko'rinishlari xalqimizning ko'p ming yillik o'tmishi davrida rivojlanib keldi. Qadimgi Xorazm, Sug'diyona va Baqtriyada ilk bor shakllangan, ajdodlarimiz tomonidan bundan 2700 yil oldin yaratilgan dastlabki yozma manba - «Avesto» kitobida ham ezgulik g'oyalari ilgari surilgan. (2001 yili YUNESKO hamkorligida 2700 yilligi keng nishonlandi). Yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi azaliy kurash aks ettirilgan. Zardo'shtiylikning ezgulik va insonparvarlik haqidagi qarashlari mintaqamizga islom dini kirib kelgunga qadar asosiy g'oyalar edi². Shuningdek, turkiy xalqlar o'rtasidagi Ko'k tangrisiga (osmon va quyoshga) sig'inish (shamanizm) va buddizm (buddaviylik) ham diniy e'tiqod sifatida zardushtiylik bilan yonma-yon yashab keldi.

Zardushtiylik mintaqada ilk bor shakllangan dastlabki davlat birlashmalari: Xorazm, Sug'diyona va Baqtriyada davlat dini darajasiga ko'tarildi va rasmiy mafkura vazifasini ham bajardi. Kushon davriga kelib zardushtiylik bilan bir qatorda, buddaviylik ham davlat dini vazifasini o'tay boshladi.

Ammo, Turonning vaqti-vaqti bilan bosqinchilar hujumiga uchrab turishi jamiyatdagi barqarorlikni izdan chiqarar edi. Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Ahmoniy shohlari, 329-327 yillarda Aleksandr Makedonskiyning bosqinchilik yurishlari mintaqada mavjud bo'lgan mustaqil davlatchilikka ma'lum muddatga chek qo'yilishiga sabab bo'ldi. Xalqimiz o'z mustaqilligini qayta tiklash uchun dushmanga qarshi yillar davomida kurash olib bordi. Mustaqillik g'oyalari, o'z milliy davlatchiligini tiklash uchun kurash xalqimizning o'sha paytdagi orzu-umidlari, ta'bir joiz bo'lsa, uning g'oya va mafkurasini tashkil qildi. Ularga

¹

² Toxir Karim. Muqaddas «Avesto» izidan. -T.: «Cho'lpon», 2000. 176-bet.

asoslangan xalqimiz Kushon podsholigi va Buyuk Turk Xoqonligi kabi ulkan saltanatlarga asos soldilar.

Biroq, tarixiy jarayon o'zgarishi bilan mintaqada mustaqil davlatchilikka yana vaqtincha chek qo'yishga to'g'ri keldi. VII asrning oxiri - VIII asrning boshlarida arab bosqinchilari Turonni bosib oldilar. Bunda istilo va istibdodga qarshi kurash g'oyalari yagona maqsad yo'lida, masalan, Turon zaminni arab istilochilaridan ozod qilish uchun janglarda birlashtiruvchi g'oya bo'ldi. Muqanna qo'zg'oloni va uning ozodlik uchun kurash g'oyalari istiqloqlolchilariga qarshi kurashda mafkura vazifasini bajardi.

Movarounnahrda islom dinining tarqalishi xalqning yagona maslakka birlashtirishdek tarixiy vazifani bajardi. IX-XII asrlarda somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar, xorazmshohlar sulolari tomonidan mintaqada asos solingan davlatlar nafaqat o'zbek xalqi, balki jahon xalqlari tarixida ham chuqur iz qoldirdi. Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi allomalarning o'lmas asarlari jahon fanini boyitdi. Mutasavvufilar: Xoja Yusuf Fomadoniy, Ahmad Yassaviy, Abdulxoliq Fijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro; muhaddislar: Imom Buxoriy, Imom Termiziylarning ta'limotida aks etgan komil inson g'oyalari, adolat haqidagi qarashlar jamiyatning sog'lom ma'naviy-axloqiy ruhini saqlash va mustahkamlashga xizmat qildi. Bu g'oyalar Vatan va xalq manfaati yo'lida fidoyilik va insonparvarlikni ulug'ladi. Ular milliy-ma'naviy qadriyatlar sifatida xalqimiz madaniyati, adabiyoti va san'atida, jumladan, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy, Mirzo Abdulqodir Bedillar ijodida chuqur o'rin egalladi.¹

Bu g'oyalar o'zbek davlatchiligining rivojlanishida ham muhim omil bo'lib xizmat qildi. Amir Temurning «Temur tuzuklari», Nizom-ul-mulkning «Siyosatnoma» kitoblarida davlat idorasi va ahli fuqaroga munosabatda adolat,

¹ Sulaymanov D. Ma'naviy omillarni jamiyat taraqqiyotidagi o'rni. T.: Sharq, 2009.234b.

insof, diyonat, el-yurt tinchligi va obodligi bosh g'oya sifatida ilgari surildi. Bu g'oyalar Temuriylar davlati g'oyaviy tamoyillarining ustuvor yo'nalishi edi.¹

XVII-XIX asrlarda umummilliy manfaatlar o'rniga tor va cheklangan, shaxsiy va sulolaviy manfaatlarning ustun qo'yilishi, jamiyat hayotida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash va ilm-ma'rifatni rivojlantirishga etarlicha e'tibor berilmagani o'zbek davlatchiligining tanazzulga yuz tutishiga, mustaqillikning qo'ldan berilishiga, Turkistonda mustamlakachilik tuzumi o'rnatilib, pirovardida milliy davlatchilikning yana bir bor tugatilishiga olib keldi. Shunga qaramasdan, chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lgan milliy g'oyalar tamomila yo'q bo'lib ketmadi. Aksincha, mustamlakachilik sharoitida ular milliy davlatchilikni tiklash, millat taraqqiyoti va istiqboli uchun kurash bayrog'i sifatida yana ilgari surildi.

Bu intilishlar XIX asrda **ma'rifatparvarlik g'oyalari** bilan chiqqan Ahmad Donishning ilg'or qarashlarida, XX asr boshida yuzaga kelgan jadidchilik harakatining taraqqiyparvar namoyondalari - Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy ijodi va faoliyatida yana ham kuchaydi. Jadidlar Turkistondagi xalqlarni birlashtirish va butun o'lkaning milliy mustaqilligi uchun kurash g'oyasini ilgari surdilar. Turkistonda bosqinchi qizil armiya va sovet tuzumiga qarshi ko'tarilgan istiqloqlilik harakatining mafkurachilari ham aynan jadidlar bo'ldilar. Biroq, mustabid sovet tuzumi bu g'oyalarga qarshi g'ayriinsoniy mafkurani ilgari surib, xalq manfaatlarini inkor etdi. Bu utopik, hayoliy g'oyalar real hayot talablariga javob bermas, xalqning an'anaviy turmush tarziga, jamiyat taraqqiyoti qonunlariga mutlaqo zid edi. Ular milliy istiqlolni tan olmas, milliy qadriyatlarni toptar, diniy e'tiqodga qarshi kurash asosiga qurilgan edi. Lekin, mustabid hukumat ularni xalqqa tan oldirish uchun jon-jahd bilan kurashdi. Bu siyosat ayovsiz kurashlar, ta'qib, tazyiq va zo'ravonliklardan iborat edi. O'sha yillardagi mash'um qatag'onlar bu kurashning fojeali namoyon bo'lishi edi.²

¹ O'zbekiston jamiyatini demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish yo'lida. -T.: Akademiya», 2005. -640-bet.

² Vaisov R. Millat va ma'naviyat. T.: 2011.-127B.

Bu tuzum o'lkamizda zo'rlik bilan o'rnatilgach, xalqimiz uning siyosati va mafkurasiga qarshi kurash olib bordi. Bu kurash shafqatsizlik bilan bostirilgach esa, yashirin tarzda davom etdi. Va nihoyat, 1937- yildagi ommaviy qatag'on bu tuzum va uning mafkurasiga, g'oyalariqa qarshi chiqqan, umummilliy manfaatlarni himoya qilgan har qanday «o'zgacha fikrlaydigan» kishini «xalq dushmani» deb e'lon qildi. Ular ba'zi milliy g'oyalarni ilgari surib, xalqimiz manfaatlarini himoya qilganliklari uchun ularni yo'q qilib yubordi.

Shundan keyingina, zo'ravonlik bilan o'rnatilgan bu g'oyalar jamiyatning yakka-yu yagona va hukmron mafkurasiga aylandi. Butun ommaviy axborot vositalari - radio, matbuot, televidenie, madaniyat, san'at, adabiyot, ijtimoiy fanlar Shu mafkurani targ'ib qilish va singdirishga xizmat qildi, davlat tashkilotlari uning hukmronligini kuch va zo'rlik bilan ta'minlab turdilar. Lekin bu g'oyalar baribir xalq qalbidan chuqur joy ololmadi, jamiyatning o'z mafkurasiga aylanmadi, xalqimizning milliy g'oya va asriy qadriyatlarini yo'q qila olmadi. Xalqimiz hayotida chuqur ildiz otgan, uning azaliy orzusi bo'lgan milliy g'oyalar XX asr 80-yillar oxirida davlatimiz rahbari Islom Karimov tomonidan izchil va jasorat bilan yana kun tartibiga qo'yildi va Vatanimiz ozodligi hamda mustaqillikni qo'lga kiritishda muhim omil bo'ldi. Ular mamlakatimizda mislsiz o'zgarishlarni amalga oshirish, xalqimiz hayoti va taraqqiyotini belgilab olishda umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligiga asoslangan ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish kabi oliy maqsadlarimiz ifodasi bo'lib kelmoqda.¹

G'oyaning inson hayotidagi o'rni va ahamiyati juda muhim falsafiy masaladir. Inson o'zi g'oyalarni yaratadi, ulardan kuch-quvvat oladi. O'zi yaratgan g'oyalar insonning ongi va shuurini, tafakkuri va e'tiqodini egallab, uning sohibiga aylanadi. Yuksak g'oyalar odamlarni olijanob maqsadlar sari etaklaydi. G'oyasi etuk, e'tiqodi butun, qadriyatlari yuksak insongina mardlik namunalarini ko'rsata oladi.

¹ Ochilxonova F. Milliy g'oya va mafkura. T.: Fan.-2012.298b.

Har bir xalqning tarixi shu xalqdan yetishib chiqqan buyuk siymolar, mard qahramonlar va fidoiy insonlar tarixi asosida bitiladi. Xalqimizning Shiroq va To'maris, Spitamen va Muqanna, Temur Malik va Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Bobur Mirzo kabi mard farzandlari - buyuk g'oya sohiblaridir.

Ming yillar o'tsa ham, ulug' ajdodlarimizning matonati va qahramonligi xalqning xotirasidan o'chmaydi. Chunki ular yuksak g'oyalar - Vatan ozodligi, el-yurt baxt-saodati, ilmu urfon rivoji yo'lida jon fido qilganlar. Ahmad Yassaviy butun umrini haq ishqida o'tkazganida ham, Najmiddin Kubro mo'g'ul bosqinchilariga qarshi jang qilganda ham ulug'vor g'oyalar ularga sabr-bardosh va matonat ato etgan. Jordano Bruno jismu jonini egallagan buyuk g'oya tufayli gulxan alangasida ham o'z e'tiqodidan qaytmagan, Nasimiyni tovonidan so'ysalar ham, ishq ilohiy deb jon bergan. Jahon tarixidan, jumladan xalqimizning o'tmishidan ham, qaysi sohada bo'lmasin, mardlik va jasorat ko'rsatish uchun insonga albatta ulug'vor g'oya kerak ekaniga ko'plab misollar topiladi.

Muayyan bir g'oya dastlab biron-bir shaxsning ongida paydo bo'ladi. Ayni paytda u yuksak ijtimoiy mazmunga ega bo'lgani, jamiyatning taraqqiyot yo'lidagi ezgu intilishlarini aks ettirgani bois umuminsoniy haqiqatga aylanadi. Jahon tajribasiga nazar tashlasak, butun dunyo taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatgan nazariy ta'limot va mafkuralarni yaratish uchun insoniyat tarixining turli davrlarida ulkan aql-zakovat, iste'dod va terak tafakkur sohiblari mislsiz zahmat chekkanini ko'ramiz. Suqrot va Platon, Konfutsiy va Zardusht, Alisher Navoiy va Maxatma Gandi kabi buyuk mutafakkirlar faoliyati buning yaqqol tasdig'idir.

Bunyodkorlik g'oyalari yurtni obod, xalq hayotini farovon qilishdek olijanob maqsadlar bilan ajralib turadi. Ular insoniyat tsivilizatsiyaga erishgan davrlardan buyon jamiyat hayotining eng ezgu g'oyalari sifatida yashab kelmoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning «O'zbek tom ma'noda bunyodkordir», degan so'zlarida ham ana Shu boqiy g'oyalarning ma'no-mazmuni o'z ifodasini topgan. Bunday bunyodkorlik xalqimizga ota-bobolaridan merosdir.

Sharqda, jamiyat rivoji va bunyodkorlik g'oyalari xususida Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy qarashlari o'ziga xos o'rin tutadi. Ular

asarlarida olijanob jamiyat, adolatli tuzum haqidagi o'z fikr-mulohazalarini bayon qilib, o'z davri uchun izchil ta'limot yaratdi. U har tomonlama etuk, barcha aholini baxt-saodatga, ilm-ma'rifatga olib boruvchi ideal jamoa haqidagi g'oyalarni olg'a surdi.¹

Milliy davlatchilik g'oyasi va uning xalqlar taraqqiyotiga ijobiy ta'sirini mustaqil O'zbekiston misolida ham yaqqol ko'rish mumkin. O'zbekistonning xalqaro hamkorlik, mintaqaviy tinchlik, millatlararo totuvlik borasida olib borayotgan siyosati barqarorlik hukm surishiga asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Muayyan tarixiy davrlarda ba'zi mafkuralar davlat ideologiyasi darajasiga ko'tarilgan. Zamonlar o'tishi bilan ularning ayrimlari o'z mavqeini yo'qotgan, lekin millat ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida saqlanib qolgan. Xalq ulardan quvvat olgan, ma'naviy oziqlangan, ular orqali o'z qadriyatlarini saqlagan.

Insoniyat tarixida o'z talab-ehtiyojlarini boshqa xalqlar hisobiga qondirish istagi talonchilik va bosqinchilik, buyuk davlatchilik va tajovuzkor millatchilik, fashizm va ekstremizm kabi mafkuralarni yuzaga keltirgan. Bunday g'oyalar xalqlar boshiga ko'p kulfat va musibatlar solgan.²

Ana Shu sababdan ham mustaqil O'zbekistonda hozirgi davrda millat, jamiyat, davlatning birlashtiruvchi bayrog'i bo'lgan milliy g'oya va mafkurani shakllantirish va xalqimiz ongiga singdirish yuzasidan faollik bilan ish olib borilmoqda. Bu mafkura mustaqillik yillarida erishilgan g'alabalarni, eng katta yutug'imiz bo'lgan istiqlolimizni, Ona Vatanimizni, farzandlarimizning baxtli kelajagini fidoyilik bilan himoya qilish, doimo hushyor va sergak bo'lishga yordam beradi. Zero, O'zbekiston bizning umumiy uyimiz - uni asrash har birimizning muqaddas vazifamizdir. Shu ma'noda milliy istiqlol g'oyasi har birimizning qalbimizga singadigan, umumiy g'oyamiz, ongimiz, dunyoqarashimizning tarkibiy qismidir.

¹ Sulaymanov D. Ma'naviy omillarni jamiyat taraqqiyotidagi o'rni. T.: Sharq, 2009.234b.

² O'zbekiston jamiyatini demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish yo'lida. -T.: Akademiya», 2005. -640-bet.

2. 3 Ma'naviyatni tarkib toptirishda adabiyot va san'at asarlarini o'rni va roli

Adabiyot va san'at asarlari mustaqil Respublikamiz fukarolari ma'naviy dunyosini boyitish, ularni go'zal narsalarning hammasidan baxramand qilish kabi ajoyib xususiyatlarga ega. Ma'naviy g'oyasi yuksak, badiiy jozibali adabiyot va san'at asarlari kishilar qalbiga tezroq yo'l topish, estetik hissiyotiga kuchli ta'sir qilish, hayotiy voqea-hodisalarni chuqur mushohada etishga da'vat etish kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shuning uchun adabiyot va san'at asarlarining kishilarni yuksak ma'naviy-ahloqiy ruhda tarbiyalashdagi badiiy ta'sir etishdek vositalik xususiyatidan imkoni boricha kengroq foydalanish muhim ahamiyatga egadir.

Adabiyot va san'at asarlarining kuchi uning xalqchil va tushunarligida, kishilar ichki — ruhiy dunyosiga emotsional ta'sir ko'rsata olishidadir. Ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashda adabiyot va san'atning ana Shu xususiyatini xisobga olish muximdir.

Ma'naviy tarbiyada o'zbek xalqining boy ma'naviy merosidan keng foydalanish uning ta'sirchanligi, samaradorligani oshirishda muhim omil bo'la oladi. Yoshlarimiz ma'naviy tarbiyasida Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Mashrab, Muqimiy, Furqat, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir kabi klassik shoir va yozuvchilarimiz asarlaridan foydalanishimiz ular qalbini, ruhiy dunyosini ma'naviy boyitishda katta ahamiyatga egadir. Ularning bizga qoldirgan boy badiiy-ma'naviy merosi o'zining chukur falsafiy mazmuni, ahloqiy yo'nalishi bilan ajralib turadi.¹

Klassik san'atkorlarimiz asarlarida xalollik va poklik to'g'rilik, birovning xaqiga ko'z olaytirmaslik, xiyonat qilmaslik, insonparvarlik,

¹ Jafarov P. Milliy o'zlikni anglash va ma'naviyat. T.: 2012.78B.

vatanparvarlik, mehnatsevarlik, diyonatlilik, imonlilik, xalol lukma bilan kun ko'rish, ota-onani hurmat qilish kabi inson uchun zarur ma'naviy xislatlar yuqori badiiy saviyada bayon etilgan.

Ma'naviy tarbiyada Pirmqul Qodirov, Odil Yokubov, Said Ahmad, O'tkir Xoshimov, Tohir Malik kabi yozuvchilarimiz, Abdulla Oripov, Erkin Voxidov, Oydin Xojieva, Omon Matchon, Rauf Parfi kabi shoirlarimizning asar va she'rlaridan ham keng foydalanish, badiiy asarlar, ulardagi qahramonlarning fe'l-atvori, ahloqi, ma'naviy dunyosi to'g'risida suhbat, munozara o'tkazish katta samara beradi.

Ma'naviy tarbiyada kishilar ongi, ruxiyatiga ta'sir etishda teatr san'atining ham roli, o'rni va ahamiyati, ta'sir etish doirasi imkoniyatlari cheksizdir. Biz teatr san'atini ikki tomoni charhlangan shamshirga o'xshatishimiz mumkin. U bir tomoni bilan kishilar qalbiga yorug'lik olib kirsam, uni yuksak ma'naviylik tomon yo'llasa, ikkinchi tomoni bilan esa inson qalbidagi nodonlik, jaholat ya'ni ma'naviyatsizlikka va jaholatga qarshi kurashadi¹.

Teatr san'ati boshqa san'at turlari kabi obrazli — badiiy tabiati bilan inson qalbiga emotsional ta'sir ko'rsatish, uning ruxiy dunyosiga chukur kirib borish, shu orqali ma'naviy dunyosini boyitash xususiyatiga ega. Mustaqillikni mustahkamlash, kishilarni yuksak ma'naviylik ruxida tarbiyalashda teatr san'atining ana shu xususiyatidan unumli foydalanish zamon talabi. Afsuski, kishilarimiz, shu jumladan yoshlarimizning teatr, kino san'ati, yoki san'atning boshqa turlariga bo'lgan qiziqishi unchalik yetarli darajada emasligi kishini ajablantiradi. Teatr voqeligimiz, kishilarimiz turmushi, intilishi, qiziqishi, xatti-harakatlarini hayajon bilan aks ettiradigan maydondir. U bir vaqtning o'zida ham so'z, ham musiqa, ham xatti-harakat orqali inson qalbiga ta'sir etish xususiyatiga egaligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun teatr va kino san'atining bu xususiyat bilan ma'naviy tarbiyada foydalanish katta samara berishi shubxasiz. Favquldan samarali foydalanish lozim bo'ladi. Shaxs

¹ Abdurahmonov A. Axloqiy tarbiya va milliy qadriyatlarimiz. //Sharq YUlduzi, 1991, 3- soni, 164-167-betlar.

ma'naviyatini shakllantirish va qaror toptirishda so'z g'oyaviy ta'sir vositasi sifatida namoyon bo'ladi. «yaxshi so'z — qilichdan ham kuchli» degan gap bor. Xaqiqatan ham o'z o'rnida ishlatilgan so'zlar, yorqin va dildan bayon etilgan nutq, bama'ni fikr doimo kishilarning xulq-atvoriga, ma'naviyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Fikrni esa tinglovchining talab-extiyoji, orzu-umidlari va manfaatlariga aloqadorligini hisobga olgan xolda bayon etilsagina ta'sirchan va ishonchli bo'ladi.¹

Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya olib borishda muayyan ma'naviy karashlar tizimini birdan, bir vaqtning o'zida ifoda etishga intilmaslik lozim. Bunday izox yaxshi samara bermasligi mumkin. Shuning uchun tinglovchiga alohida-alohida fikrlarni ravon va sodda tilda bayon etilsa, u masalaning mohiyatini tez anglab oladi.

Aytilayotgan fikr tinglovchi qalbidan o'rin oladi. Masalan, shaxs ma'naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarimizni o'rni xaqida so'zlar ekanmiz ularning barchasini bir boshdan birma-bir o'tish shart emas. Ya'ni, ona mexr-muhabbatining naqadar ulkan kuch ekani, bunga aloqador noyob udumlarimiz borligini anglash uchun oddiy ona allasining ta'sirchanligini his etish kishi qalbida kuchli, takrorlanmas kechinmalarni uyg'otishi mumkin.

O'z-o'zini boshqarishning milliy modeli bo'lgan mahallamizning azaliy udumlari, urf-odatlar va an'alalariga tayangan holda, ulkan ma'naviy tarbiya vazifasini bajaradi. Keksalarning pand-nasihati, kattalarning shaxsiy ibrati, jamoaning xamjihatligi orqali odamlar ongiga ezgulik g'oyalari singdirib boriladi.

Maxalla avvalo sog'lom ijtimoiy, ma'naviy, ahloqiy muhit sanaladi. Mahallada kuchli ta'sirga ega bo'lgan jamoatchilik fikri maxalla ahlini uning katta yoki kichikligidan, amaldor yoki oddiy ishchi, *xunarmand*, boy yoki nochor bo'lishidan qat'iy nazar ularning xulq-atvori, o'zaro munosabatlarini ma'naviyat va ma'naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. Shu ma'noda

¹ Karimov I.A Uzbekiston buyuk kelajak sari. 16- bet.

maxalla, birinch Prezidentimiz Islom Karimov ta`kidlaganidek, xaqiqiy demokratiya darsxonasidir.¹ .

Maxallada keng jamoatchilik o`rtasida g`oyaviy-mafkuraviy, ma`naviy-ma`rifiy ishlarni samarali yo`lga qo`yish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa, har bir kishi qalbida milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, hamjixatlik, insoniylik, el-yurt sha`ni uchun kurash, o`zaro yordam kabi fazilatlarni kamol topishida maxallaning o`rni beqiyos.

Shaxs ma`naviyatini shakllantirishda talim-tarbiya muassasalarining o`rni nihoyatda katta. Maktablar, litsey, kasb-xunar kollejlari, oliy o`kuv yurtlari ma`naviy tarbiyaning asosiy o`choqlaridir. Ularning barchasida amalga oshiriladigan ma`naviy tarbiya jarayonida, barcha o`quv ko`rsatmalar va darsliklar, qo`shimcha adabiyotlarda, o`tkaziladigan tadbirlarda quyidagi ma`naviy-ma`rifiy omillar ustuvor ahamiyat kasb etishi maqsadga muvofiq:

- Vatanga muhabbat tuyg`usini shakllantirish;
- ona tilimizga muxabbat va hurmat uyg`otish;
- milliy qadriyatlarimiz, ma`naviy merosimizga hurmatni kuchaytirish;
- ezgulik timsoli bo`lgan ayolni ulug`lash;
- umuminsoniy qadriyatlarning millatlararo totuvlik,

bag`rikenglik, dunyoviy ilmlarga intilish va ilg`or madaniyatni shakllantirish vositasi ekanligini uqtirish;

- dinning dunyoviylik bilan qarama-qarshi emasligini anglatash;

- huquqiy madaniyat sog`lom dunyoqarash, sog`lom ma`naviy fazilat shakllanishining muhim omili ekanligini tushuntirish;

- o`z tarixini bilish orqali o`zligini anglash va boshqalar.

Ta`lim muassasalarida yaratilgan o`quv qo`llanmalardan tortib, sinf va auditoriyalargacha barchasini mafkuraviy, ma`naviy-ma`rifiy ta`lim beruvi ijtimoiy ko`rgazmali qurollar bilan qurollantirish maqsadga muvofiq.

¹ Islom Karimov. Milliy istiklol mafkurasi- xalk e`tikodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.:2002,-

Shundagina shaxs ma'naviyatini shakllantirish borasida qo'ygan maqsadga erishamiz. Shuning bilan ta'lim va tarbiyaning samaradorligini oshirib borish ham eng dolzarb vazifalarimiz qatorida turganligini esdan chiqarmasligimiz lozim.

Bugun yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar shunchaki islohot uchun emas, aynan inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qiladi.

Biz tanlab olgan yo'l, bozor iqtisodiyoti jamiyatda ma'lum ma'noda tabaqalanishga olib kelishi tabiiy. Aholining eng kam himoyalangan va muhtoj tabaqalarini o'z vaqtida qo'llab-quvvatlash xalq farovonligi, insonparvarligi yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar muvaffaqiyati garovidir.

Bu to'g'risida Islom Karimov shunday yozadn: «Islohotlarimizning muhim tamoyillaridan biri — aholining kam ta'minlangan tabaqasi, ya'ni qariyalar, nogironlar, bolalarini muhofaza qilish, ularni puxta himoyalashdir. Yoshlarning bilim olishi, kasb-xunar egallashi, ish bilan ta'minlanishida har tomonlama yordam berish davlatimizning muqaddas burchidir». Bu erda Prezidentimiz Islom Karimovning insonparvarlik fazilati namoyon bo'lgan.¹

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan 1997- yilni «Inson manfaatlari»; 1998- yilni «Oila»; 1999- yilni «Ayollar»; 2000- yilni «Sog'lom avlod»; 2001- yilni esa «Onalar va bolalar», 2002- yilni «Qariyalarni qadrlash» yili, deb belgilanishida ham chuqur insonparvarlik ma'nosi yotadi

Insonparvarlikning ko'rinishlaridan biri bu insonni ulug'lashdir. Inson tabiatning gultoji. U har qancha maqtovga loyiq zot sanaladi. Bu haqda Qur'on va hadislarda, mutafakkirlar ijodida ajoyib, ibratli fikrlar aytilgan. Biz bu o'rinda «Sharq Gegeli» degan sharaflı nomga sazovor bo'lgan faylasuf shoir, mutafakkir Mirzo Abdulqodir Bedil so'zlarini keltirish bilan cheklanamiz. Qanday ajoyib fikr! Ushbu fikr har qanday davr uchun ham ma'naviyatli, ardoqli va olijanobdir.

¹ Til- millat kalbi. «Mulokot» jurnali. 1991 yil, 10- son.

Mustaqil Respublikamiz fuqarolari, xususan yoshlari ruhiyatida vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, ularni rivojlantirish demokratik, ma'naviyatli va huquqiy jamiyatni barpo etishning muhim kafolati sanaladi. Shuning uchun vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirish butun tarbiyaviy ishimizning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmog'i lozim.

O'z millatiga sadoqatli bo'lish millatparvarlik bilan hamoxang tushunchadir. Millatparvarlik bu har bir inson uchun yuksak burch sanaladi. O'z millatini sevmagan inson o'zini ham, Vatanini ham seva olmaydi. Millatparvarlik o'z millatini boshqa millatlardan ustun qo'yish yoki kamsitish kabi (millatchilik va shovinizm) jirkanch harakatlardan tubdan farq qiluvchi tuyg'udir. Millatparvarlik o'z millatining birligini mustakamlash, o'z tili, urf-odatlarini, an'alarini rivojlantirish, qadriyatlar va meroslarni ko'z qorachig'iday asrash, o'z millatining kelajagi uchun xizmat qiluvchi aql-zakovat (intellektni), salohiyatni (potentsial) rivojlantirish va milliy tarbiyani amalga oshirish yo'lida fidoyi bo'lishdir.¹

Milliy o'zlikni anglashning muhim omili bo'lgan millatparvarlik tuyg'usini shakllantirishda yaqin o'tmishda millatimiz manfaatlarini ko'zlab millatparvarlikning yorqin namunasini ko'rsatgan millatimizning sodil farzandlari amalga oshirgan ishlarni tashviqot qilish katga ahamiyatga ega. Bugun F. Xo'jaev, A. Ikromov, A. Nodiriy, U. Nosir, A. Fitrat, I. Mo'minov, X. Abdullaev, Sh. Rashidov kabilarning nomlari millatparvarlikni o'zida yorqin mujassam etganligini yoshlarga tushuntirishimiz lozim. Ularning har biri sho'rolar tuzumining eng murakkab, eng qiyin sharoitida millatimizning manfaatini, qadr-qimmatini, or-nomusini, tarixini, madaniyatini va ma'rifatini himoya qildilar. Millatimizning mustaqilligi uchun jon fido etdilar.

Bugun mustaqil O'zbekistonning jahonda o'z munosib o'rnini topishi, millatimizning qadr-qimmatini joyiga qo'yish ona zaminda yashayotgan

¹ O'zbekiston jamiyatini demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish yo'lida. -T.: Akademiya», 2005. -640-bet.

barcha millat va elatlar vakillari bilan barqaror rivojlanish yo'lida faoliyat ko'rsatayotgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov nomi millatparvarlikning yorqin ifodasi sifatida xalkimiz qalbidan chuqur o'rin olgan.

Har birimiz imon tushunchasining mohiyatini to'g'ri anglab, tushunib olsak, imonni izoxlovchisi bo'lgan diyonat, vijdonlilik, insof, mehr-oqibat, ma'naviyatlilik, poklik va halollik, kamtarlikning ham mohiyatini bilib olamiz. Faqat imonli kishilargina poklik va hlollik, diyonat, ezgulik, mehr-oqibat, sahovat, muruvvat yo'lida bo'ladilar. Shuning uchun imon tushunchasini, uning mohiyatini keng qamrovli asosda bayon qilishni maqsadga muvofiq deb bildik.¹

Imonli kishilar Ollohdan qo'rqish, bandadan uyalish ne ekanligini chuqur idrok etganlar. Ollohni pir, Payg'ambarimizni uning elchisi deb bilish — imonning bosh belgisi hisoblanadi. Imonli bo'lgan kishilar butun xayotlarida, ishlarida, faoliyatlarida, uyda, ko'chada birovga, o'z oilasiga munosabatlarida hamisha to'g'ri va halol yo'l tutishga intiladilar. Muomala va munosabatlarida g'araz bo'lmaydi, ta'madan va haromdan xazar qiladilar. Har ishlarida faqat bu dunyoni emas, oxiratni ham o'ylab ish tutadilar. Barcha amallari va xatti-harakatlarini shunga bo'ysundirishga harakat qiladilar.

Imon arabcha so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosi — ishonch demakdir. Shariatda esa janob payg'ambarimiz Muhammad alayxissalomga Olloh tarafidan keltirgan barcha xabarlarga til bilan iqror bo'lib, dil bilan tasdiqlashga imon deyiladi. Ya'ni Qur'oni Karim va hadisi shariflar orqali Olloh to'g'risida, jannat, do'zax, qiyomat kuni haqida berilgan xabarlarga ishonch — imondir.²

Ma'naviy-axloqiy fazilat sifatida esa imon faqat odamzotgagina xos ruhiy xodisa jumlasiga kiradi. Inson, odamzotdan tashqari hech bir maxluqotda imonning o'rnatagi ham yo'q. Binobarin, odamzot jamiki boshqa jonzotlardan biron bir narsaga ishonib, uni muqaddas deb bilishi, ya'ni imon keltirishi bilan ajralib turadi. Imon kishi ma'naviyatining, axloqining o'qildizi, poydevori, negizidir. Imondan mahrum kimsaning akdi nechog'li o'tkir, irodasi naqadar cho'ng bo'lmasin va shular tufayli

¹ Vaisov R. Millat va ma'naviyat. T.: 2011.-127B.

² Sh. Turdiev. Maxmudxuja Bexbudiy. «Mulokot» jurnali. 1994. 3-4 sonlar. 47- bet.

o'zligidan qanchalik mag'rurlanmasin, u chinakam insonlar qatoriga hech qachon kiritil-magan, kiritilmaydi ham. Zero, imonsiz odam na Oллоhdan qo'rqadi va na bandalardan uyaladi. U o'z nafsining itoatkor quli bo'lib, har qanday razolat va pastkashliklardan qaytmaydi. Oллоh hammamizni shundan asrasin. Buning uchun imon yo'lini tutishimiz lozin.

Imonning mohiyati azaldan olam va odamzotning kelib chiqishi, odamning olamdagi o'rni qanday, inson umrining ma'nosi nimada, zoti bashar nimaga da'vat etilgan, u nimalarga qodiru, nimalarga noqodir singari muammolar tashkil etib keladi.

hamma dinlarda imonga alohida e'tibor beriladi. Imon barcha dinlarning ustuni sanaladi. Chunonchi, zardushtiylik imoni uch tayanchga: niyat — fikrning sofliqiga, so'zning sobitligiga, amallarning insoniyiligiga suyanadi. Imonli kishi o'g'rilik va talonchilikdan, o'zgalarning mol-mulkiga ko'z olaytirishdan, birovning haqiga xiyonat qilishdan, boshqacha aytganda, o'zligiga, ya'ni o'z imoniga xilof, zid ish qilishdan o'zini tiya biladigan komil insondir. Imonli odamga yuqorida qayd etilgan ishlarni qilma, gunoh bo'ladi deb targ'ib qilishning hojati yo'q.¹

Bundan 1400 yil muqaddam Oллоhning irodasi bilan Muhammad alayxissalom faoliyatlari tufayli bunyodga kelgan islom ta'limotiga ko'ra, imon mohiyatini Qur'oni Karimning quyidagi surasi ochib beradi; «chin ko'nglim ila imon keltirdim: Oллоhi taologa va uning farishtalariga va uning kitoblariga va uning payg'ambarlariga ham bu dunyo yo'q bo'lib oxirat kuni bo'lmog'iga va qadarga, Ya'ni yaxshi va yomon ishlar har qaysisi ilohi taolodan bo'lmog'ligiga va o'lgandan so'ng qabrdan tirilib va bularning hammasi xaqiqat ekaniga. Dilim birla guvohlik berurman, albatga, Oллоxdan o'zga hech ma'bud yo'qdir. Yana guvohlik beraman, albatga, Muhammad Oллоhi taoloning bandasi va barcha bandalariga din ahkomlarini o'rgatmoq uchun yuborgan payg'ambaridur».

¹ O'zbekiston jamiyatini demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish yo'lida. -T.: Akademiya», 2005. -640-bet.

Kur'oni Karimda imonli odamlarning belgilari quyidagicha tavsiflanadi. Ular mo'min, ronish, yuvvosh, itoatkor, poklikka intiluvchi, shartnomalariga rioya etuvchi, itoatga amal qiluvchilardir.

Hozirgi kunda yer yuzida diniy imonning bir talay turlari bo'lib, jahon ahllari aro keng taraqqalmani to'rttadir: buddaviy imon, iudaviy imon, isoviy imon, islomiy imon. Diniy imon yo'nalishlari xilma-xil bo'lgan xolda mazmunan oliy bir ibtidoga ishonch ruxining qalbda qaror topishidan kelib chiqib dunyoni anglashdir.

Imon shaxs ma'naviy-ruhiy olamida qaysi yo'nalishda qaror topmasin. Uning sharti asosan bittadir. Ya'ni imonli odamning so'zi bilan ishi bir bo'ladi. Bunday inson har qanday sharoitda o'z so'zi va axdnomasida turadi. Agar shunday qilmasa, vijdon azobida qoladi va o'zini-o'zi sira kechirmaydi. Demak, vijdon, halollik, poklik, rostgo'ylik, insof-diyonat, sahovat, muruvvat, ma'naviyat, xalq, vatan ishq bilan yashash faqat imoni butun odamlargagina xos fazilatlaridir.¹

Diniy imon bilan birga inson tajribasi, bilimi tufayli yuzaga kelgan dunsviy imon ham bor. Dunyoviy imon mazmunini olam va odam haqida so'nggi ikki yarim ming yil mobaynida kashf etilgan ilmiy-falsafiy bilimlar, mehnat axdining to'plagan hayot tajribasi, ijtimoiy xotirasi, turli-tuman udumlar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, an'analar va ular zamiridagi bilimlar tashkil etadi. Dunyoviy imonning o'zagi odamiylikdan iborat bo'lib, uning tarkibiga kiradigan unsurlar, qirralar, jihatlar g'oyat turli-tumandir. Odamiylik deganda xalqimiz uzoq tarixi davomida turli sinovlardan o'tib sayqal topib kelayotgan va faqatgina ijobiy fazilatlar tarzida e'zozlanadigan axloqiy qadriyatlarni tushunsak bo'ladi. Odamiylik g'oyasi xalqimizning butun turmush tarziga, urf-odatlar hamda an'analariga, uning mislsiz boy og'zaki va yozma ijodiga, mumtoz adabiyotimiz va san'atimizga singib ketgan bo'lib, hozircha chuqur o'rganilib umumlashtirilgani yo'q.

¹ Jafarov P. Milliy o'zlikni anglash va ma'naviyat. T.: 2012.78B.

XULOSA

G'oya va ma'naviyatni inson va jamiyat hayotida tutgan o'rni va rolini o'rganish, ayni paytda inson ruhiyati, maqsad va intilishlari ishonch hamda e'tiqodining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarga ham bog'liq. Uning namoyon bo'lishi nafaqat har bir Shaxs, ayni paytda boshqa insonlar, muayyan guruhlar va qatlamlar, elat, millat, xalqning mushtarak maqsadlari yuzaga chiqishining muhim omilidir.

G'oya va ma'naviyatni anglash umummaqsad yo'lida birlashish, uyushish, o'zini safarbar etish, hamjihat va hamkorlik, totuvlik hamda bag'rikenglik fazilatlari sifatida namoyon bo'lishini bildiradi. Shunday omilning mavjudligi mamlakatning, xalqning, millatning ma'naviy, ruhiy kuch-qudrati mustahkam ekanligini ko'rsatadi. Uning negizida o'zlikni anglash, millat va xalqni, jamiyatning oldida turgan mushtarak maqsadlarni anglash yotadi. Mushtarak taqdir, Vatan, tarix, milliy-madaniy meros, til, madaniy qadriyatlar bir tomondan, ikkinchidan, mamlakatning, xalqning, millatning dunyo, bashariyat erishayotgan yutuqlaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyojni his etish tuyg'usi ana Shu jarayonda milliy istiqloq g'oyasini taraqqiyotning muhim kaliti sifatida namoyon etadi. Uning asosiy g'oyalari va fuqarolik mas'uliyati hamda mamlakatning, millatning kelajagi, uning o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'lini amalga oshirish, o'zligini saqlab qolish uchun Vatan oldida, millat va kelgusi avlodlar oldidagi mas'ullik ruhini singdiradi.

G'oya va ma'naviyatni o'rganishni fuqarolik mas'uliyati va burchi ham, unga ishonch va e'tiqodni mustahkam bo'lishini his etishni taqozo etadi. Shundagina u xalqni, millatni birlashtirishga, mustaqillikni mustahkamlashga va rivojlantirishga xizmat qila oladigan muhim vazifani bajaradi. Inson faoliyatida bunyodkorlik yoki tajovuzkorlik kuchini namoyon bo'lishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham har

qanday fikr, g'oya, mafkura ham xalqlar taqdiriga bir xil ta'sir etmagan. Ular orasida bunyodkor g'oyalar bilan birga, buzg'unchi va tajovuzkorlari ham bo'lganligi mafkura tarixidan ma'lum. Bu ham turli ijtimoiy kuchlarning «ichki ma'naviy dunyosi» maqsad va muddaolari bilan bogliq bo'lgan o'ziga xos qonuniyatdir. Ularni ham o'rganish, bilish zarur. Bu insonda ezgu g'oyalardan yovuz g'oyalarni farqlay olish qobiliyatini shakllantiradi va g'oyani g'oyadan, mafkurani mafkuradan farqini anglashga yordam beradi.

Bugunga globallashuv jarayoni o'tmishda ham, hozir va kelajakda ham milliy g'oyaga bo'lgan zaruratni oshirib boradi. Shuning uchun ham bu dunyo qanchalik ma'rifiy taraqqiyot qonunlariga amal qilmasin, inson qalbi, ongi va ishonchi, e'tiqodini o'zgartirishga bo'lgan harakat, urinish, doimo saqlanib qoladi. Bunday urinish yo'qolgan davrni, inson ongi va qalbini o'z holicha erkin va turli xil «mafkuraviy tazyiqdardan xoli holda rivojlanish deb tasavvur etiishi» faqat orzu qilish mumkin. Turli maqsadlar, manfaatlar bor ekan u turli davrlarda, turli xil namoyon bo'lishi tabiiy.

Bu qonuniyatlarni fan yo'li bilan o'rganib, oldindan uni bashorat qilish o'ta murakkab jarayondir. Chunki, g'oya va mafkura sohasi ishonch va e'tiqod, dunyoqarash, manfaatlar tizimi bilan bog'liq. Shunga ko'ra, faqat uning o'zgaruvchanligini oldindan aytish mumkin, xolos. Uni xalqning o'zligiga bo'lgan munosabati, o'zligini anglash darajasi, milliy-madaniy merosiga, qadriyatlariga bo'lgan munosabatda har bir avlodga nima berayotgani va nimani meros qilib qoldira olishi bilan bog'liq qonuniyat mujassamlashgan.

G'oya va ma'naviyatni o'zligini saqlab qolish maqsadi dunyodan ajralib yashashni, faqat o'z qobig'iga o'ralib qoliishni bildirmaydi. Aksincha, dunyo bilan hamnafas bo'lishga undaydi. Faqat milliy ma'naviy qadriyatlariga, merosiga tayangan holda unga hurmat bilan qarashga, o'z milliy ma'naviy ne-gizlariga tayanib, undan uzilmaslikni o'rgatadi. Chunki undan begonalashish, milliy o'zligidan uzoqlashtiradi, tarixidan, qadriyatlaridan ayri holda rivojlanishga sabab bo'ladi. Bu milliy taraqqiyot qonuniyatiga va manfaatlar uygunligiga ham mos kelmaydi.

Milliy g'oya bu mustaqillikni mustahkamlash va uni asrab-avaylash, himoya qilish omili. Shuning uchun ham u inson ongini boshqarishni emas, aksincha uni bunyodkor g'oyalarga yo'naltirishga xizmat qiladigan oliy qadriyat hamdir. Milliy g'oya ana Shu eng oliy qadriyat — inson, xalq, millat, mamlakat sha'ni, qadr-qimmatini, o'zligini hurmat qilishiga tayangan holda turli tsivilizatsiyalar rivoji talablariga javob beradi. Milliy g'oyani o'rganish kishida milliy g'ururni uyg'otadi va doimo o'zligini bilib yashashga undaydi. Shuning uchun ham milliy g'oya boshqa ijtimoiy falsafiy fanlardan farqli o'laroq Vatan, millatning dardi, orzu-umidlarini, maqsadlarini, sha'nini baland tutib, uni doimo halbida saqlagan holda o'zligini boyitib borishda taraqqiyot omili bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayon ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish kabi milliy g'oyaning bosh maqsadi bilan mushtaraklikda namoyon bo'lishining sababi ham shunda. U demokratik rivojlanish, fuqarolik jamiyati qurilishiga yo'naltirilgan, fuqarolarni millatidan, dini va e'tiqodidan qat'iy nazar, safarbar etuv-chilik bilan bog'liq ma'naviy-ruhiy kuch-qudrat manbaidir. Xalqning, millatning, har bir fuqaroning nafaqat o'tmish, bugungi kun va kelajagi bilan bog'langan. Milliy istiqlol g'oyasini ishonch va e'tiqodga aylantirish bir kishining ishi emas. U har bir millat fidoyisi, mutafakkirining vazifasidir. Zero, xalqning, millatning jipslashib, o'zaro hamkor, hamjihat bo'lib, ozod va obod Vatanda erkin hamda farovon hayotda yashashining kafolatidir. Milliy istiqlol g'oyasi — bu mavhum maqsadlar emas. U aniq bo'lib, har bir kishining kundalik hayot tarzi, dunyoqaraish, ong va tafakkuri, ishonch va e'tiqodi, uning faoliyati orqali ijtimoiy hayot o'zgarishlariga ta'sir ko'rsatadi. Bu sohadagi har bir yutuq insonning o'ziga, oila a'zolari, mahallasi, el-yurti, xalqi va millatining, Vatani, mamlakatining ravnaqiga, taraqqiyotiga muhim hissa bo'lib qo'shiladi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T. «O'zbekiston», 2012, 4-8-betlar.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka, tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.6. - T.: «O'zbekiston», 1997, 31-40, 125-135, 149-162-betlar.
3. Karimov I.A. Jamiyat mafkurasi xalqni - xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin. T.7.- T.: «O'zbekiston», 1999, 84-102-b.
4. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.8. -T.: «O'zbekiston», 2000. 489-508-b.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: «O'zbekiston», 2000.
6. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. T.8. -T.: «O'zbekiston», 2000. 462-467-b.
7. Karimov I.A. «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasiga so'z boshi. T.9. - T.: «O'zbekiston», 2001. 220-224-b.
8. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l - demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. -T.: «O'zbekiston», 2003, 214-247-betlar.
9. Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch - qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog'liq. -T.: «O'zbekiston», 2004.
10. Karimov I.A. El-yurtga halol, vijdonan xizmat qilish har bir rahbarning muqaddas burchi. Andijon viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlagan nutq. «Ishonch», 2004 yil 26 may.

11. Karimov I.A. Qonun va adolat ustuvorligi faoliyatimiz mezonini bo'lsin. Surxondaryo viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlangan nutq «Xalq so'zi», 2004 yil 2 iyun.
12. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l - demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. -T.11. -T.: «O'zbekiston», 2003.-320 betlar.
13. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch - qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. - T.12. -T.: «O'zbekiston», 2004. - 400 b.
14. Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar, deb hisoblashar edi. - T.: «O'zbekiston», 2005. - 64 b.
15. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. - T.: «O'zbekiston», 2005. - 96 b.
16. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. - T.: «O'zbekiston», 2005. - 160 b.
17. Aflotun. Qonunlar. -T.: «Yangi asr avlodi», 2002. 161-204-betlar.
18. Abdulla Avloniy. «Turkiy guliston yoxud axloq». -T.: «Sharq», 1994. 18-35-betlar.
19. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. -T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. 5-38-betlar.
20. Azizxo'jaev A.A. Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar. -T.: «Sharq», «Akademiya», 2001. 59-96-betlar.
21. Azizxo'jaev A.A. Chin o'zbek ishi. -T.: «Akademiya», 2003. 72-90-betlar.
22. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar, - T.: «Yangi asr avlodi», 2001. 23-54-betlar.
23. Jo'raev N. Mafkuraviy immunitet. - T.: «Ma'naviyat», 2000. - 16 b.
24. Saifnazarov I. Ma'naviy barkamollik va siyosiy madaniyat. -T.: «SHarq», 2001.

25. Saifnazarov I., Karimov T.: Muxtorov A. Xalqimizning hamjihatligi terrorizmga qarshi kafolatdir. - T.: «Yangi asr avlodi», 2004. - 56 b.
26. Bekmurodov A.Sh. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat: ustuvor masalalar va innovatsiyalar. - T.: TDIU, 2005. - 44 b.
27. Muxtorof A. Shaxs tarbiyasida milliy g'oya, ehtiyoj va manfaatlar uyg'unligi. - T.: Yangi asr avlodi, 2003. -138-bet.
28. Tohir Karim. Muqaddas «Avesto» izidan. T.: «Cho'lpon», 2000. 176-bet.
29. Tohir Karim. Milliy tafakkur taraqqiyotidan. T.: «Cho'lpon», 2003. 160-bet.
30. Ochildiev A. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. -T.: «O'zbekiston», 2004. - 136 b.
31. Bekmurodov M. O'zbek mentaliteti. -T.: «Yangi asr avlodi», 2004. 36-bet.
32. Jo'raev U., Saydjonov Y. Dunyo dinlari tarixi. -T.: Sharq, 1998.
33. Ergashev I. Siyosat falsafasi. T.: «Akademiya», 2004. 130-bet.
34. Ergashev I. va boshq. Milliy istiqlol g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. -T.: Akademiya, 2005. 31-79-betlar.
35. O'zbekiston jamiyatini demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish yo'lida. -T.: Akademiya», 2005. -640-bet.
36. S.Otamuradov, S.Otamuradov. O'zbekistonda ma'naviy –ruhiy tiklanish.T.,”Yangi asr avlodi”,2003y.
37. Ochilxonova F. Milliy g'oya va mafkura. T.: Fan.-2012.298b.
38. Sulaymanov D. Ma'naviy omillarni jamiyat taraqqiyotidagi o'rni. T.: SHarq, 2009.234b.
39. Vaisov R. Millat va ma'naviyat. T.: 2011.-127B.
40. Jafarov P. Milliy o'zlikni anglash va ma'naviyat. T.: 2012.78B.

Quyidagi internet saytlaridan foydalanildi

1. www.gov.uz.
2. www.bilim.uz.
3. www.filosofiya.ru.

4. www.philosophy.nsc.ru.